

O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

Qarshi davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti

O‘zbek tilshunosligi kafedrasи

"Himoyaga tavsiya etilsin"

O‘zbek filologiyasi fakulteti dekani

**R.Jumayev**

“ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

### **SOBIROVA SHAHZODA FAHRIDDIN QIZINING**

5120100- Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili )

ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

### **A.NAVOIYNING «MAHBUB-UL QULUB» ASARINING LEKSIK**

#### **XUSUSIYATLARI**

mavzusida yozgan

### **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Bitiruvchi talaba: \_\_\_\_\_ Sh.Sobirova

Ilmiy rahbar \_\_\_\_\_ f.f.n. N.Yuldasheva

“ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

"Himoyaga tavsiya etildi"

O‘zbek tilshunosligi kafedrasи

mudiri \_\_\_\_\_ dots. **B.Bahriiddinova**

“ ” \_\_\_\_\_ 2018-yil

**QARSHI-2018**

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.</b> .....	<b>3</b>
<b>1-BOB. A.NAVOIY ASARLARINING O'RGANILISHI</b> .....	<b>7</b>
1.1. A.Navoiy asarlari leksikasining o'ziga xosligini ta'minlovchi lingvistik omillar.....	7
1.2. "Mahbub-ul qulub" leksikasining tarixiy-etimologik tasnifi: o'z qatlam leksikasi va o'zlashgan qatlam leksikasi.....	17
<b>2-BOB. "MAHBUB-UL QULUB" LEKSIKASINING SEMANTIK MAYDON ASOSIDAGI TASNIFI.....</b>	<b>31</b>
2.1.Shaxs va shaxs faoliyati bilan bog'liq semantik maydon.....	31
2.2. Harakat-holat bildiruvchi semantik maydon.....	34
2.3. Belgi-xususiyat bildiruvchi semantik maydon.....	38
2.4. Qabila, elat, xalq tushunchasini ifodalovchi semantik maydon.....	39
2.5. Kasb-hunar tushunchasini bildiruvchi semantik guruh.....	41
2.6. Oziq-ovqat tushunchasini ifodalovchi semantik guruh.....	45
2.7. "Mahbub ul -qulub"leksikasining shakl va ma'no munosabatiga ko'ra tasnifi.....	47
<b>XULOSA.....</b>	<b>59</b>
<b>SHARTLI QISQARTMALAR.....</b>	<b>61</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>62</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mumtoz asarlarni tadqiq etish, yozma manbalarning ilmiy, ma’naviy-ma’rifiy qiymatini belgilash, badiiy, til xususiyatlarini o‘rganish filologiya sohasining asosiy masalalaridan hisoblanadi. “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an’analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma’naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi”<sup>1</sup>.

Tarixiy-badiiy manbalar leksikasini o‘rganish yozma asarlar yaratilgan davr adabiy tiliga xos xususiyatlar, lug‘aviy sath taraqqiyoti, leksik birliklar semantikasini yoritishda ahamiyatlidir. Yozma yodgorliklarda muayyan davr adabiy tili lug‘at fondining asosiy qismi aks etadi. Shu bilan bir qatorda, muallif mahoratining o‘ziga xos qirralari namoyon bo‘ladi. Eski o‘zbek adabiy tilining leksik xususiyatlarini o‘zida mujassamlantirgan, Alisher Navoiy mahoratining yuksak namunasi bo‘lgan yozma manbalardan biri “Mahbub-ul qulub”dir.

“Mahbub-ul qulub”da XV – XVI asr eski o‘zbek adabiy tilidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, harbiy tizim, maishiy hayotga oid leksik birliklar jamlangan. Shuningdek, Afg‘oniston, Movaraunnahr xalqining yashash tarzi, madaniyati, turmush darajasini aks ettiruvchi forscha-tojikcha, arabcha so‘zlar o‘z ifodasini topgan. “Mahbub-ul qulub” leksikasi tadqiqi XV–XVI asr eski o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibi, fonetik, leksik, grammatik xususiyatlarini o‘rganishda, turkiy til taraqqiyoti, turkiy leksemalar semantikasi, o‘zbek tili tarixiy leksikologiyasi, tarixiy dialektologiya masalalarini, Navoiyning so‘z qo‘llash mahoratini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Zero, “...yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma va mutafakkirlarning hayoti va ilmiy-ijodiy faoliyati haqida yaxlit tasavvur uyg‘otish, xalqaro miqyosda dinlararo va sivilizatsiyalararo muloqotni yo‘lga qo‘yish...

---

<sup>1</sup> Karimov I. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat. - 2008.-B. 30.

jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yosh avlodni gumanistik g'oyalar, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalashdek ezgu maqsadlarni ko'zda tutadi”<sup>2</sup>.

“Mahbub-ul qulub” lingvistik aspektida to‘liq o‘rganilmagan. Xususan, asar leksikasi lingvostatistik, tarixiy-etimologik, funksional-semantik xususiyatlariga ko‘ra monografik planda tadqiq etilmagan. Asar tilidagi o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam nisbati belgilanmagan. Turkiy, arabcha, forscha-tojikcha so‘zlar semantikasi, qadimgi turkiy va eski turkiy til davriga oid arxaik birliklar, tarixiy dialektal so‘zlar ma’nosi, leksik birliklarning mazmunni ifodalashdagi o‘rni, funksional-stilistik qiymati, asar matnining o‘ziga xosligini ta’minlovchi lingvistik omillar yoritilmagan. Ayni shu jihatlar mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsad va vazifalari.** “Mahbub-ul qulub” asarining leksik birliklarini lug‘aviy qatlamga ko‘ra tasniflash, o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlam nisbatini belgilash, so‘zlarning semantik, funksional-stilistik xususiyatlarini, leksik birliklar o‘rtasidagi mazmuniy, paradigmatic munosabatlarni tahlil qilish, Boburning so‘z qo‘llash mahorati, asar tilining o‘ziga xosligini ta’minlovchi lingvistik omillarni yoritish tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- asar leksikasining tarixiy-etimologik genezisini aniqlash;
- asardagi turkiy so‘zlar semantikasini yoritish;
- asardagi arabcha, forscha-tojikcha so‘zlar semantikasini yoritish;
- arabcha, forscha-tojikcha so‘zlarning eski turkiy va hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi qo‘llanish darajasini tahlil qilish;
- asar leksikasini semantik maydon asosida tasniflash, mikromaydon, makro va mikroguruhlarga ajratish va izohlash;
- semantik maydon leksemalarini komponent tahlil qilish, birlashtiruvchi va farqlovchi semalarni aniqlash;

<sup>2</sup> Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston ijodkor ziyyolilari vakillari bilan uchrashuvdagagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. – 2017-yil, 4-avgust.

-frazemalar semantikasini yoritish;

-A.Navoiyning tilshunoslikka oid qarashlarini tahlil qilish; turli tilga mansub so‘zlarni qiyoslash, so‘z etimologiyasi, semantikasi, imlosiga doir mulohazalarini umumlashtirish.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi.** O‘zbek tilshunosligidagi bir qator tadqiqotlarda yozma yodgorliklar tilini o‘rganish asosida muayyan davr tiliga xos xususiyatlar yoritildi. Jumladan, qadimgi turkiy va eski turkiy til xususiyatlari aks etgan tadqiqotlar yaratildi<sup>3</sup>. XI –XIV asr yozma yodgorliklari leksikasi tadqiq etildi<sup>4</sup>, eski o‘zbek adabiy tili manbalari tilini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar yuzaga keldi, tarixiy yozma yodgorliklarning lingvistik xususiyatlari o‘rganildi.<sup>5</sup> Eski o‘zbek adabiy tilining nodir manbasi – “Mahbub-ul qulub” tarix, adabiyotshunoslilik nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Asarning badiiy xususiyatlari o‘rganildi, tarjimalari, nashrlari tadqiq etildi.

A.Navoiy asarlarining til xususiyatlarini, xususan, grammatic qurilishini ilmiy asosda o‘rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi. Dastlab B.Bafoyev, Z.Hamidov, S. Ashirbayev va I.Nasirovlar adib asarlariga doir maqolalar e’lon qildilar va XV asr eski o‘zbek adabiy tili grammatic tizimi, grammatic shakllar taraqqiyoti haqidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildilar<sup>6</sup>. A.Navoiyning o‘zbek tili taraqqiyotidagi o‘rnini, til hodisalariga munosabatini yorituvchi izlanishlar olib bordilar.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi.** “Mahbub-ul qulub” leksikasi tarixiy- etimologik, funksional-semantik xususiyatlariga ko‘ra ilk bor monografik planda

---

<sup>3</sup> Sodiqov Q. XI-XV asr uyg‘ur yozuvli turkiy yodgorliklarning grafik-fonetik xususiyatlari. Filol. fan. d-ri...diss.-Tashkent, 1992; Rustamova S. Mahmud Koshg‘ariy lug‘atining leksikografik xususiyatlari. Filol. fan. nom. ...diss. – Toshkent, 1998 va h.

<sup>4</sup> Дадабаев Х.А. Общественно-политическая и социально-экономическая терминология в тюркоязычных письменных памятниках XI-XIV вв. -Ташкент, 1991; Abdushukurov B. XI-XIV asr turkiy manbalar tilidagi zoonimlar. Filol. fan. nom...diss. avtoref. -Toshkent, 1998 va h. k.

<sup>5</sup> Насыров И. Лексика «Маджалис ан-нафаис» Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.- Ташкент,1980; Hamidov Z. Leksiko-semanticheskoye i lingvopoeticheskoye issledovaniye yazika “Lisan at-tayr” Alishera Navoi. Avtoref. diss. ...kand. filol. nauk. - Т., 1982; Bafoev B. Navoiy asarlari leksikasi.-Toshkent,1983., 1990.

<sup>6</sup> Насыров И. Лексика «Маджалис ан-нафаис» Алишера Навои. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук.- Ташкент,1980; Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка “Лисан ат-тайр” Алишера Навои. Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. - Т., 1982; Bafoev B. Navoiy asarlari leksikasi.- Toshkent,1983.

tadqiq etildi. Asarni lingvistik aspektida o‘rganishga bag‘ishlangan ishlar tahlil qilindi. Turkiy so‘zlarning semantik, funksional-stilistik xususiyatlari, qadimgi turkiy til va hozirgi o‘zbek adabiy tili, shevalarga munosabati yoritildi. “Mahbub-ul qulub” matniga xos, Navoiy va Bobur asarlari uchun tuzilgan lug‘atlar hamda o‘sha davrda yaratilgan ayrim manbalarda uchramaydigan leksik birliklar ajratildi. Arabcha, forscha-tojikcha o‘zlashmalarning semantik xususiyatlari izohlandi. “Mahbub-ul qulub” leksikasi semantik maydon asosida ilk bor tadqiq etildi. Har bir semantik maydon birlklari ichki semantik guruhlarga ajratildi. Semantik maydon tasnifida komponent tahlilga e’tibor qaratildi, birlashtiruvchi va farqlovchi semalar aniqlandi. Frazemalarning funksional-semantik xususiyatlari yoritildi, Adibning so‘z etimologiyasi, so‘z imlosi, so‘z tahliliga oid qarashlari umumlashtirildi. Shu asosda muallifning tilga munosabati va so‘z qo‘llash mahorati ochib berildi.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Tadqiqot obyekti sifatida Alisher Navoiyning “Mahbub-ul qulub” asari olindi.

BMI mavzusi mazkur masala borasida o‘zbek tilshunosligida mavjud bo‘lgan tadqiqot ishlaridan, hozirgi o‘zbek adabiy tili darslik va qo‘llanmalaridan, o‘zbek tilining izohli lug‘ati va badiiy asarlardan ijodiy foydalanilgan holda yoritildi.

**Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati.** BMIda keltirilgan fikrlar, xulosalar o‘zbek tilining leksikologiya, semasiologiya, leksikografiya va terminologiya sohalariga doir masalalarni yoritishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari darslik va qo‘llanmalar tuzishda, metodik ko‘rsatma va tavsiyalar berishda nazariy manba vazifasini o‘taydi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati natijalarning “Mahbub-ul qulub”dagi leksik birliklarni o‘rganishda, muallifning so‘z qo‘llash mahoratini yoritishda, leksik xususiyatlarni tahlil qilishda muhimligi bilan belgilanadi.

**BMIning tuzilishi va hajmi.** Ishning umumiylajmi ... bet bo‘lib, u ishning umumiylajmi, kirish, 2 bob, xulosa va adabiyotlar ro‘yxatidan iborat.

## **1-BOB**

### **A.NAVOIY ASARLARINING O'RGANILISHI**

#### **1.1. A.Navoiy asarlari leksikasining o'ziga xosligini ta'minlovchi lingvistik omillar**

Istiqlol yillarda xalqimizning o‘z’ o‘tmish madaniy va ma’naviy merosiga bo‘lgan munosabati tubdan o‘zgardi. Shu jihatdan yozma yodgorliklarimizning tarkibiy qismi bo‘lgan hazrat Alisher Navoiy ijodiyotini chuqur o‘rganish davr talabiga aylanmoqda.

Zero, muhtaram Birinchi Prezidentimiz aytganlaridek, «Ona tiliga muhabbat, uni ulug‘lash, beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ongu — tafakkurimizga, yuragimizga, avvalo, Navoiy asarlari bilan kirib kelgan... Agar shoir asarlarini varaqlasak, deyarli har sahifasida «xalq», «el», «ulus», «yurt», «raiyat» degan so‘zlarning «mehr», «muruvvat», «oqibat», «saxovat», «sadoqat» so‘zleri bilan uzviy bog‘lanib ketganini ko‘ramiz»<sup>7</sup>.

Demak, Navoiy asarlaridagi har bir so‘zning ma’no inkishofi alohida ilmiy qimmatga ega. O‘zbekistonda yigirma jilddan iborat Alisher Navoiyning «Mukammal asarlar to‘plami»ning nashr etilishi, shubhasiz, fan olamida olamshumul voqea bo‘ldi. Ushbu asarlar Navoiy merosini to‘liq qamrab olgan va izohlar bilan ta’minlangan. Bu esa, Alisher Navoiyning katta hajmdagi boy merosiga turli fan sohalari yo‘nalishi bo‘yicha yangicha usulda yondoshishni taqozo etadi, yangi-yangi ilmiy tadqiqotlar yaratishga asos bo‘ladi. Negaki, shu paytgacha Navoiy ijodiyoti to‘liq va mukammal holda nashr etilmagan edi. Shu ma’noda Birinchi Prezidentimiz I.Karimovning «Navoiyni sevsak, o‘zbek xalqini sevgan bo‘lamiz»<sup>8</sup>, — deb ta’kidlaganlarida katta ma’no bor. Chunki butun dunyo xalqlari e’tiborida bo‘lgan Navoiy ijodiyoti mangulikka daxldor merosdir. Endilikda Navoiyni tanigan jahonning turli o‘lkalaridagi

---

<sup>7</sup> A.Karimov.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 3–4.

<sup>8</sup> A.Karimov.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 3–4.

millat vakillari o‘zbek xalqini ham tanimoqda. Qomuslar mumtoz asarlarni o‘qish va uqish, ularga haqqoniy baho berishda ko‘zgu vazifasini o‘taydi.

Qolaversa, har bir xalqning tarixan milliy ma’naviyatining shakllanishida lug‘at manbalarning o‘rni beqiyos. Shu jihatdan, Navoiy asarlari yuzasidan qadimda va hozirda ham bir qator lug‘at manbalar yaratilgan. Masalan, «Badoi’ ul -lug‘at», «Xamsa bo halli lug‘at», «Abushqa», «Sangloh», «Lug‘ati turkiy», «Lug‘oti atrokiya», «Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy — usmoniy», «Halli lug‘ati chig‘atoyi», «Nisobi Navoiy», «Lug‘ati Amir Navoiy», «Halli lug‘ati «Xamsa»yi Navoiy», «Dar bayoni lug‘ati Navoiy», «Halli lug‘ati chig‘atoyi «Xamsa»iy Navoiy», «Muntaxab ul —lug‘at» hamda Porso Shamsiyevning «Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati» kabi qomuslar shular jumlasidandir. «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati» buyuk mutafakkir shoirning beba ho asarlarini o‘qish va tushunish uchun kitobxonlarga katta yordam beruvchi fundamental tadqiqotdir. Uning nashr qilinishi tadqiqotchilar uchun ham boy faktik materiallar berdi. Izohli lug‘atdan faqat o‘zbek mumtoz asarlari tilinigina emas, balki ko‘pgina boshqa turkiy xalqlarning adabiy va tarixiy qo‘lyozma manbalarini o‘rganishda ham foydalanish mumkin. Lug‘at o‘tmishda va hozirda yaratilgan barcha lutat manbalarning boy tajribasiga asoslanilgan holda tuzilgan. Mazkur lug‘at O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining «Tarixiy leksikologiya va leksikografiya» (1983-1985-yillar) bo‘limida tayyorlanib, nashr etilgan. Izohli lug‘atni tuzishga katta ilmiy jamoa jalb etilgan bo‘lishiga qaramasdan, turli sabablarga ko‘ra, lug‘at Navoiy asarlaridagi barcha so‘zlarni qamrab olmagan. Bu hol ko‘proq o‘sha davr mafkurasi ta’siridagi bir yoqlamalik oqibatida yuz bergen. Tilga olingan lug‘atlarning birontasida Alisher Navoiy asarlaridagi barcha so‘zlar qamrab olinmagan. Shuning uchun Navoiy asarlari leksikasini to‘laligicha aks ettiradigan qo‘srimcha lug‘atlar tuzish hamda leksikografik tadqiqotlar yaratish ishi navbatdagi eng zarur ishlardan biri sanaladi. Busiz Navoiyning badiiy so‘z qo‘llash mahorati, o‘zbek adabiy tilini boyitishdagi o‘rni haqida, baralla gapirish biroz nojoiz ko‘rinadi.

She'riyat mulkining sultoni, buyuk bobomiz Alisher Navoiy va uning ijodi ham hech qachon mustaqillik davridagidek qadrlanmagan. Shuning uchun ham muhtaram yurtboshimiz: “Inson qalbining quvonchu-qayg‘usini ezgulik va hayot mazmunini Alisher Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Alisher Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimimzni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz” deb ta’kidlagan edi<sup>9</sup>.

“Inson qalbining quvonchu-qayg‘usini ezgulik va hayot mazmunini Alisher Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan-kam topiladi. Ona tiliga muhabbat uning beqiyos boyligi va buyukligini anglash tuyg‘usi ham bizning ong-u shuurimiz, yuragimizga, avvalo, Alisher Navoiy asarlari bilan kirib keladi. Biz bu bebaho merosdan xalqimimzni, ayniqsa, yoshlarimizni qanchalik ko‘p bahramand etsak, milliy ma’naviyatimizni yuksaltirishda jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarni kamol toptirishda shunchalik qudratli ma’rifiy qurolga ega bo‘lamiz” deb ta’kidlagan edi muhtaram Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov<sup>10</sup>.

Demak, “A.Navoiyning «Mahbub-ul qulub» asarining leksik xususiyatlari” mavzuidagi tadqiqot ishi ana shu jihatlariga ko‘ra ham kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb ilmiy — uslubiy ishlardan hisoblanadi. Zero, Alisher Navoiy ijodini lisoniy jihatdan o‘rganish ham uning xotirasini eslash va unga hurmat ko‘rsatish namunasi hisoblanadi.

O‘zbek tili tarixiga nazar tashlasak, lisoniy xususiyatlarining o‘rganilishi jihatidan nisbatan yaxshi o‘rganilgan davr XIV–XV asrlarga oid yozma yodgorliklar tili ekanligini ko‘ramiz. Bu borada eng chuqur tadqiq qilingan davr

---

<sup>9</sup> I.A.Karimov.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 3–4.

<sup>10</sup> I.A.Karimov.Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – B. 9–10.

XI–XVI asrlarga oid asarlar tili hisoblanadi. Bu yozma obidalar lisoniy xususiyatlarining tavsifi A.K. Borovkov, T.Borovkova, S.Y.Malov, P.M.Melioranskiy, E.Nadjip, V.M.Nasilov, A.M.Shcherbak, G’.Abdurahmonov, M.T.Ziyeyeva, Q.Karimov, Q.Mahmudov, U. Mirzakarimova, H.G’Ne’matov, N.A.Rasulova, Sh.Fayzullayeva, N.A.Zayanchkovskaya, Sh.Shukurov kabi olimlarning ilmiy ishlari bilan uzviy bog’liqdir, Shuningdek, eski turkiy tilning lisoniyati nuqtayi nazardan o‘rgangan g’arb turkshunos olimlari K.Brokkelman, A.Gaben, K.Grunbax, V.A.Radlovlarning ilmiy ishlarida ham keng miqyosda aks ettirilgan.

O‘zbek tili tarixida o‘rganilishi ancha samarali bo‘lgan davr sifatida XV asr – Alisher Navoiy asarlarining lisoniy xususiyatlari borasida amalga oshirilgan ilmiy ishlarni qayd etish mumkin.

Navbatdagi davrga oid tadqiqotlarda, asosan, Bobur, qisman, Muhammad Solih, Abulg’izi Bahodirxon asarlarining til xususiyatlari o‘rganilgan. Bu xususda S.N.Ivanov, A.N.Kononov, N.Ahmatov, X.Nazarova, M.Turobovalarning tadqiqotlarini sanab o‘tish mumkin.

XVIII asrning oxiri, XIX asrning o‘rtalarigacha bo‘lgan davr uzbek adabiy tili va adabiyoti tarixida alohida ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, bu davr yozma yodgorliklari juda kam tadqiqot manbai qilib olingan. Mazkur davrning o‘zbek tili tarixidagi ahamiyati shundan iboratki, uch xonliklar davrida Qo‘qon, Xorazm hamda Buxoro adabiy muhitlari shakllangan bo‘lib, har bir muhitning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud edi. Biroq avval ta’kidlanganidek, lisoniy jihatdan katta ahamiyatga molik bo‘lgan bu davr yozma yodgorliklari juda zaif o‘rganilgan. XVIII asrning oxiri XIX asr o‘rtalarida yaratilgan yozma yodgorliklarning til xususiyatlari mazkur davr yozma manbalarining morfologik xususiyatlari ustida ilmiy izlanishlar olib borgan A.Matg’oziyev hamda Gulxaniy "Zarbulmasal"ining lisoniy tavsifini o‘rganib chiqqan F.Ishoqovlarning ilmiy izlanishlarini sanab o‘tish mumkin, xolos.

O‘rta Osiyoning Rossiya tasarrufiga olinishi bilan bog’liq ravishda o‘zbek adabiyoti va o‘zbek adabiy tili tarixida yangi davr boshlandi. XVIII asrning oxiri

XIX asr o‘rtalaridan farqli o‘larоq, XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida yashab ijod etgan demokrat shoirlar (Muqimiy, Furqat, A.O‘tar...), matbuot hamda yangi o‘zbek adabiy tilining asoschilari (Hamza, A.Qodiriy, S.Ayniy) asarlarining til xususiyatlari ustida ancha mukammal tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu sohada A.Borovkov, A.Ahmedov, M.Rahmonov, B.Turdialiyev, A.Shomaqsudovlarning ishlari alohida ajralib turadi va bu davrning lisoniy holatini ancha to‘liq aks ettiradi.

Yuqoridagi bayondan ko‘rinib turibdiki, XV asrda yaratilgan davr ilmiy adabiyotimizda yetarli darajada o‘rganilgan. Shunga qaramasdan, Alisher Navoiy ijodi ayrim olingan asar orqali bitiruv malakaviy ishining manbai bo‘lgan emas.

Eng qadimgi davrlardan boshlab O‘rta Osiyoda yashab kelgan turkiy va boshqa tillarda so‘zlovchi jamoalarning madaniy aloqalari, bir-biriga yaqinlashuvlari va aralashuvlari jarayoni davom etib kelgan. Bu tarixiy jarayon eramizning birinchi asrlarda boshlanganligi ko‘rsatiladi, eslatib o‘tiladi.<sup>1</sup> (M.Vahobov) Qadimgi turkiy va sug’diy –eroniy qabilalar o‘rtasida iqtisodiy va madaniy munosabatlarning rivojlanishi ularning tillariga ham ta’sir qildi. Ayniqsa, g’arbda eftalilar davlatining tugatilishi va turk xoqonligining vujudga kelishi davrida bu tarixiy jarayon yana ham kuchaydi. Natijada bir tomonidan, bu urug’ va qabilalarning bir qismi o‘zaro bir-biri bilan qo‘silib ketadi. Ikkinchi tomonidan esa, turkiy va sug’diy-eroniy tillarning o‘zaro bir-biriga samarali ta’siri ancha kengaydi. O‘rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi, keyinchalik somoniylar davlatining tashkil topishi va ayniqsa Mavorounnahrda hokimiyatning Qoraxoniylar tomonidan bosib olinishi bu yerda yashagan turkiy va sug’diy-forsiy xalqlarning bir-biri bilan aralashib ketishi jarayonini kuchaytirdi hamda turkiy lashgan ayrim sug’diy larning turkiy qabilalar tarkibiga singib ketishiga olib keldi. Shu asosda O‘zbek elatinining tashkil topishi va shakllanishi jarayonida turklashgan ayrim sug’diy larning ham ishtirok etganligini ko‘rish mumkin. Bu davrlarda o‘zining tuzilishi asosida – grammatic qurilishi va asosiy lug’at fondini saqlagan holda, qadimgi sug’diy tili negizida shakllanib rivojlangan davri “fors-tojik” tili bilan turkiy tillarning o‘zaro bir-biriga ta’siri ham kuchaydi.

Buning natijasida bu tillar ancha boyidi, rivojlandi.Bu qadimiy tarixiy jarayonning kuchli ta'sirini ayniqsa O'rta Osiyoning eng qadimgi aholisi bo'lgan o'zbek va fors-tojik xalqlarining hayoti ham, ularning adabiyoti va tillarida ochiq ko'rish mumkin.

Ma'lumki, o'zbeklar va tojiklar qadimgi davrlardan boshlab bir umumiyy hududda yashab kelganlar. Bir xil, yoki bir-biriga juda yaqin, turmush sharoiti, uzoq yillar davomida iqtisodiy, siyosiy va madaniy hamkorlik va munosabatlar bu ikki xalqni bir-biriga juda yaqinlashtirdi, ularning qardoshlik aloqalarini mustahkamladi.Bu tarixiy-madaniy hamkorlik va aloqalar o'zbek va tojik xalqlarining urf-odatlarida, adabiyoti va san'atlarida ,o'zbek va tojik tillarining o'zaro bir-biriga ta'sirida o'zining yorqin ifodasini topdi .O'z tuzilish tarkibini saqlagan o'zbek tilining lug'at tarkibiga ko'plab fors-tojik so'zlar qabul qilindi.Ijtimoiy - siyosiy madaniy hayotning turli sohalariga tegishli bo'lgan bu so'zlar o'zbek tili lug'atida ma'lum bir qatlamni tashkil qiladi, tilda yangi sinonim so'zlarning paydo bo'lishi va ko'payishiga sabab bo'ladi.Shoh, andisha, farmon bo'ston,sargardon ,hafta ,sahro ,haridor, gul, gulob, noma ,arg'umon,afsona, bazm, baxt, orom ,beparvo, dastor, jom ,kamtarin, lashkar, may,ohang, ohista, ruhsor, kabi.

Dastlabki paytlarda fors-tojik tilidan qabul qilingan lug'aviy birliklar mavhum va aniq tushunchalarni bildirgan so'zlardan iborat bo'lsa, asta-sekin belgi xususiyat, holat va miqdor tushunchalarini ifodalagan so'zlar ham o'zlashtiriladi: dono, dilbar, dilkash, benavo, gado, gulandom, devona, shirin, jigarpora, maboda, mardona, namoyon, nozuk kabi.

Turkiy -o'zbek va fors-tojik tillari xalqlarining bir-biri bilan qo'shilib aralashib ketishi, bu xalqaro tillarning o'zaro ta'siri natijasida forsiy va turkiy izohlar, aralash forsiy-turkiy so'z birikmlari keng qo'llangan: mahbubi dil , ayyomi vasl, mohi hovariy, shahri vasl, latofat mulki, junun vodiysi, ishq ahli, hajr ilgi,muhhabbat siri, jondin batang kabi.

Fors -tojik tilidan o'zlashtirilgan so'zlar tarkibida bo'lgan bir qator yasovchi vositalar (-zor,-don,-iston,-ham,no-,be-) keyinchalik o'zbek tilida ham yangi

so‘zlar yasashga xizmat qiluvchi affiks bo‘lib qoladi: olmazor, tuzdon, kuldon, *hamqishloq*, *noo ‘rin*, *beomon* kabi yasovchi affikslar bilan birga mustaqil so‘z negizlaridan hosil bo‘lgan yasovchi elemenlar –affiksoidlar ham qabul qilinadi (-*shunos*, -*xo ‘r*, -*do ‘z*, -*kash*, -*xon*, -*xona*, -*noma*, -*parvar* kabi), *tilshunos* *tuproqshunos*, *oshxo ‘r*, *qonxo ‘r*, *etikdo ‘z*, *ishxona*, *chizmakash* singari.

Fors-tojik tilining ta’siri natijasida o‘zbek tilining fonetik tizimi va grammatik qurilishida ham ayrim o‘zgarishlar yuzaga keldi. Bularning muhimlaridan biri sifatida bevosita fors-tojik tilining ta’siri ostida yetakchi shahar shevalarida turkiy til fonologik tizimiga xos bo‘lмаган tovushlarning paydo bo‘lishini ko‘rsatish mumkin. Chetdan kirib qolgan bu qo‘sishimcha omil ta’sirida til oldi unlilarining konvergensiysi yuzaga keldi. Buning natijasida Toshkent tipidagi shahar shevalarining vokalizmi fors-tojik tili unlilariga yaqinlashib bordi, Samarqand- Buxoro shevalarining unlilari tarkibi esa ilgaridan fors-tojik tili vokalizmiga yaqin edi. Bu hodisa o‘zbek tilida singarmonizmning qisqarishiga, shahar shevalarida esa asta-sekin kuchsizlanib yo‘qola borishiga olib keldi.

Ko‘p asrlar davomida bir hududda yashash bir xil turmush tarzi va madaniy hayot bu xalqlarning tillarida yaratilgan hikmatli so‘zlar, maqol va iboralarda ham o‘z aksini topdi.

Masalan: *Bir kunga ho ‘kiz o’lmas, ikki kunga egasi bermas* - *Ba yek ro ‘z barzagov namemurad, ba du ro ‘z sohebash namedihad; odamning qo ‘li gul-* *Dasti odam gul*; kabi hikmatli so‘z va iboralar mazmuni bilan ham bir- biriga o‘xshaydi. Bu kabi hikmatli so‘z va iboralar bu tillarda bir vaqtida yoki oldinma ketin yuzaga kelgan.

O‘zbek tili ham, o‘z navbatida, fors-tojik tilining rivojlanishiga, uning leksikasiga va ayniqsa grammatikasiga ma’lum darajada ta’sir qilgan o‘zbek tilidan juda ko‘p so‘zlar iboralar lug’aviy birliklardan tashqari, bir qator so‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslar ( -*chi*, -*cha*, *dosh*, *siz*, *lik* kabi ) ham fors-tojik tiliga ham qabul qilingan. Tarixiy jihatdan o‘zaro doimiy aloqada bo‘lib turishi sababli fors-tojik tilida ayniqsa uning ko‘pgina yetakchi shevalari morfologiyasi va sintaksisida paydo bo‘lib, keng ishlatilayotgan yangi agglyutinativ tipdagi tahliliy

shakllar jumladan, *omada budam, rafta istodaam, rafta istoda budam* tipidagi ravishdoshli murakkab fe'l shakllari bevosita o'zbek tilining ta'siri asosida paydo bo'lgan grammatik hodisalar hisoblanadi.

O'zbek va fors-tojik tillarining o'zaro bir-biriga ta'siri bizning davrimizgacha davom etdi,yana ham mustahkamlanib bordi. Buning natijasida ikki tilchilik hodisasi yuzaga keldi,shiru-shakar usulida yozilgan asarlar paydo bo'ldi.

Turkiy tillarga, jumladan,o'zbek tiliga ko'proq uning lug'at tarkibi boyishiga arab tili ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi.Mahalliy xalqlarning tillariga arab tillariga arab tilining ta'siri bevosita VIII asr boshlarida arablarning O'rta Osiyon bosib olishi,arab halifaligi hukmronligining boshlanishi va bu yerdagi xalqlarning musulmonlikni,islom dinini qabul qilishi bilan bog'langan..O'rta Osiyo xalqlari islom dini bilan birga arab yozuvini ham qabul qildilar. Arab tili esa mamlakatning ijtimoiy-madaniy hayotida asosiy o'rinni egallay boshladi. Arab tili faqat islom dinini targ'ib qilish,islom falsafasi va aqidalariga doir g'oyalar,fikr va tushunchalarni ifodalash va diniy ibodat majburiyatlarini bajarish sohasidagina emas, balki davlat idora ishlarida,mamlakatning ilmiy -madaniy hayotida ham hukmron til sifatida qo'llanar edi. Arab tilining fan va adabiyotda keng ishlatilishiga uning islom dini bilan birga va uning tili sifatida juda katta hududga tarqalishi va umumiy tilga aylanishi ham sabab bo'ldi.Bu tarixiy hodisalar mahalliy xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayoti va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu davrlarda diniy aqidalarni targ'ib qiluvchi shuningdek turli fanlarga oid ilmiy asarlar asosan arab tilida yozilar edi.Jumladan,O'rta Osiyo xalqlari orasida yetishib chiqqan yirik olimlar-Al-Xorazmiy,Abu nasr Farobi,Abu Ali ibn Sino,Aburayhon Beruniy, Mahmud Qoshg'ariylar o'z asarlarini ona tilida emas,balki arab tilida yozishga majbur bo'ldilar.

Yuqorida ko'rsatilgan tarixiy jarayon natijasida mahalliy xalqlarning tillariga arab tllaridan ko'plab so'z va iboralar qabul qilindi.Arab tilidan kirib kelgan yangi o'zlashtirmalar dastlabki paytlarda ko'proq islom bilan,diniy-axloqiy aqidalar bilan bog'liq tushunchalarni ifodalovchi so'zlardan iborat bo'lgan:hikmat, ummat,ro'zimahshar, hadis, oyat, qur'on, haq, iymon, payg'ambar, musulmon,

arofat kabi.Bu kabi so‘zlar bir tomondan, Qur’on va hadislar singari bevosita islom diniga doir kitoblarni tarjimalari,tafsirlari orqali mahalliy tillarga,jumladan o‘zbek tiliga qabul qilingan.Ikkinchchi tomondan esa, diniy mavzularda (Yassaviy “Hikmat”lari, ”Qissasi Rabg’uziy” kabilar) yaratilishi ham, o‘zbek tilida arab tiliga xos so‘z va iboralarning ko‘payishiga olib keldi.Keyinroq esa adabiyot fan va madaniyatning rivojlanishi bilan bog’liq ravishda ijtimoiy hayotning turli sohalariga oid mavhum va aniq tushunchalarni,belgi xususiyat kabilarni ifodalovchi ko‘plab arabcha so‘z va iboralar o‘zbek tliga qabul qilinadi: *adolat, vatan, ijozat, adabiyot, amaliyat, maslahat, javob, ijodiy, madaniyat, imlo, imon, vazn, ijobiy, luqma, zuhra, kamolot* kabilar.

Shuni eslatish kerakki,arab tilining O‘rta Osiyo xalqlari tillariga,shu jumladan o‘zbek tiliga bo‘lgan ta’siri asosan lug’at tarkibi bilan chegaralanadi.O‘zbek tili leksikasiga arab tilidan kirib kelgan so‘zlarning ko‘philagini predmet ma’nosini ayniqsa mavhum predmetlikni va belgi ma’nosini bildiruvchi iboralar tashkil qiladi.O‘zbek tilining fonetik tuzilishi va grammatik qurilishiga esa arab tili sezilarli ta’sir ko‘rsata olmadi.

O‘rta asrlarda VIII-XV asrlar davomida Yaqin va O‘rta sharq mamlakatlarida ikki til – din va ilm fan sohasida arab tilini qo‘llash hamda badiiy ijodda fors-tojik tilida asarlar yaratish an’anaga aylanib qolgan edi. Xalqimiz orasidan yetishib chiqqan buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Ibn sino, Mahmud Qoshg’ariy kabilar o‘z asrlarini ona tilida emas, balki ana shu an’anaga ko‘ra arab tilida yozdilar.Badiiy adabiyotda esa fors-tojik adabiy tili an’analarining ta’siri ancha kuchli edi.Uning ta’siri ostida hatto o‘zbek xalqi orasida yetishib chiqqan shoir yozuvchilar ham ona tiliga nisbatan noto‘g’ri munosabatda bo‘ldilar.Ular turk- o‘zbek tilini dag’al til, unda nozik histuyg’ularni nafis tarzda ifodalab bo‘lmaydi degan g’ayri ilmiy, noto‘g’ri fikrlarni ilgari surar edilar.Mana shunday sharoitda Alisher Navoiy ona tilini himoya qilish uchun Kurash bayroqdori, ona tilining boyligi va sofligi uchun tolmas kurashchi sifatida maydonga chiqdi,ona tilining qimmatini va kamsituvchilarga qarshi kurashdi. O‘z ona tili – turk o‘zbek tilining boyligini qudrat va salohiyatini unung

cheksiz imkoniyatlarga ega ekanligini, katta kuch va g’ayrat bilan himoya qildi, uni she’riyat osmoniga ko’tardi. Shu bilan birga u fors-tojik tili va adabiyotining taraqqiyotiga ham munosib hissa qo’shdi.

Navoiy o‘zining ona tili uchun olib borgan kurashini uch yo‘nalishda, yani buyuk shoir va yozuvchi sifatida, yirik davlat arbobi hamda ulug’ mutafakkir, tilshunos olim sifatida davom ettirdi.

U o‘zining ajoyib nazm durdonalarini yuksak badiiy qimmatga ega bo‘lgan “Xazoyin – ul maoniy”, “Xamsa”, “Mahbub-ul qulub” kabi asarlarini ona tilida yozish orqali turk o‘zbek tilining qudratini, uning boy tasviriy vosita va imkoniyatlarga ega ekanligini, to‘liq ma’noda badiiy adabiyot tili ekanligini amaliy tarzda isbotlab berdi. Navoiy o‘z adabiy- asrlarini yaratish jarayonida juda muhim va murakkab ikki vazifani – o‘zbek adabiy tilini yuksak darajada rivojlantirish va takomillashtirish, uning hozirgi o‘zbek adabiyotiga xos adabiy uslubiy me’yorlarini ishlab chiqish hamda tom ma’nodagi o‘zbek adabiyotini yaratish, undan xalq ommasini bahramand qilish vazifalarini amalga oshirdi.

Turk-o‘zbek adabiy tilini ijtimoiy- siyosiy jihatdan himoya qilish Naoiyning ona tili uchun, uning davlat tili bo‘lishi uchun oilb borgan kurashining ikkinchi yo‘nalishini tashkil qiladi.

O‘zbek adabiy tilining lug’at tartibi – asl turkiy so‘zlar bilan birga, arab, fors-tojik tillaridan qabul qilingan juda ko‘p yangi o‘zlashtirma so‘zlar bilan boyiydi, bu so‘zlar juda ko‘p qo‘llanadi.

Navoiy o‘zining butun adabiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati davomida ona tilida katta adabiyot,fors-tojik tili bilan musobaqa qila oladigan darajada yuksak badiiy asarlar yaratish, turk-o‘zbek tilini rivojlantirish uning boy imkoniyatlarini ochib berish uchun tinmay harakat qildi. U “yuqori” bayon uslubi talablaridan kelib chiqqan holda arab va fors-tojik tillari unsurlaridan ayniqsa lug’at boyligidan shuningdek grammatik shakllari, badiiy tasvir vositalardan keng foydalandi va o‘zbek adabiy tilini boyitdi.

Yuqorida eslatib o‘tilganidek Navoiy o‘z asarlarida jonli xalq tiliga xos shakllar, so‘z va iboralarni ko‘p qo‘llaydi.

*Ato o ‘g’lig’ a yig’labon: hoy-hoy!*

*Qiziga anor tortibon: voy-voy!*

Shu bilan birga shoir arabiylar iboralar, forscha-tojikcha iboralar va so‘z va birikmalardan ham samarali foydalandi.

“Mahbub-ul qulub” tilidagi ifoda teranligini, fikr-hissiyotlarning yorqin aks ettirilishini, voqelikning mohirona tasvirini “soddaligi” bilangina izohlab bo‘lmaydi. Asar tilida “jonli va obrazli ifoda”ning mavjudligi, arab, fors so‘zlaridan keng foydalanilgani, forscha-tojikcha, arabcha birikma, ibora, maqol va hikmatli so‘zlarning qo‘llangani, hindcha so‘zlarning uchrashi, ergash gapli qo‘shma gap ko‘rinishlari asar tilining ta’kidlangan darajada sodda emasligini ko‘rsatadi.

Navoiy har bir so‘zning ma’nosini teran anglagan holda ma’lum maqsadlarda qo‘lladi. So‘zlashuv nutqiga xos so‘zlarning semantik imkoniyatlaridan o‘rinli foydalandi. Negaki, xalq jonli nutqidan so‘z o‘zlashtirish har qanday oddiy, qo‘pol so‘zlarni emas, umummilliy e’tirofga aylana oladigan xalq so‘zlashuv nutqiga xos so‘zlarni qo‘llashni nazarda tutadi.

## **1.2. “Mahbub-ul qulub” leksikasining tarixiy-etimologik tasnifi: o‘z qatlam leksikasi va o‘zlashgan qatlam leksikasi**

So‘nggi yillarda xalqimizning o‘z o‘tmish madaniy merosiga bo‘lgan qiziqishi tubdan o‘zgardi. Ayniqsa, Alisher Navoiyning nashr etilayotgan yigirma jildlik «Mukammal asarlar to‘plami»ga bo‘lgan e’tibor davr talabiga aylandi. Tadqiqotimiz obekti bo‘lgan «Mahbub ul —qulub» asari ham ana shu «Mukammal asarlar to‘plami»ning o‘n to‘rtinchi jildidan joy olgan. Ushbu asar shoir hayotining so‘nggi yillarida yozilgan nasriy asarlaridan biridir. Asar haqida yirik sharqshunos filolog olimlarning bir qancha maqola va tadqiqotlari chop etilgan. Sobiq ittifoq davri mafkurasi ga ko‘ra asardan hamd, na’tlar tushirib qoldirilgan. Ammo, muhimi bu ham emas. Bundan chorak asr ilgari Alisher Navoiy asarlarining dastlabki akademik nashrini tayyorlash haqida so‘z

borganida navoiyshunos olim Abduqodir Hayitmetov tomonidan «Mahbub ul —qulub»ning nashri haqida tanqidiy fikr — mulohazalar bildirilgan edi: «Shoir tavalludining 500 yilligiga tuhfa sifatida akademik A.N.Kononov «Mahbub ul —qulub»ning yig‘ma (svodniy) tekstini tayyorlab nashr ettirgan edi. Ammo unda muallif matnini qaytadan tiklash maqsad qilib qo‘yilmagani uchun, undan ilmiy — tanqidiy matn o‘rnida foydalanish qiyin. Shu sababdan bu xil asarlarning ham ilmiy matnini yaratish ehtiyoji «seziladi»<sup>11</sup>. Zero, bu hol ham asarning til xususiyatlari, ayniqsa, lug‘aviy birliklari borasida uzil —kesil ilmiy xulosalar chiqarishga ham mone’lik qilar edi. Demak, asarning mukammal ilmiy —tanqidiy matni yo‘qligi hamda to‘liq nashr etilmaganligi tufayli juda ko‘p lug‘aviy birliklar qomusiy manbalardan joy olmagan. Natijada bu xildagi so‘zlarning ma’no qirralari ochilmay qolgan. Asar tilidagi bunday so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tili muammolarini yechishdagi o‘rni to hanuz o‘rganilmagan. Darhaqiqat, ilmiy izlanishlarimiz jarayonida yuzdan ortiq leksik birliklar «Navoiy asarlari tilining to‘rt jildlik izohli lug‘ati» da hamda leksik tadqiqot ishlarida ham qayd etilmaganligi ma’lum bo‘ladi.

Ulug‘ mutafakkir Alisher Navoy «Mahbub ul — qulub» asarida har bir so‘zni go‘yo sadafdek joylashtirgan. Bir qarashda sodda ravon tilda yozilgandek ko‘rinadigan bu nasriy bayonni qanchalik o‘qiganimiz sari murakkab tafakkur dunyosiga qadam qo‘yayotganimizni qalban his etib, aqlan idrok eta boshlaymiz. Go‘yo kishiga nasriy bayon emas, ash’or o‘qiyotgandek bo‘ladi. Quyida ana shunday so‘zlarning ma’nolari xususida to‘xtalib o‘tmochimiz: «Qora quzg‘unni oq tuyg‘un desa, qozni yaxshi olur demagan muqassir. Yorug‘ tunni tiyra tun desa, suho ko‘rinadur demagan mudbir»<sup>12</sup> . Ramz tilida bitilgan ushbu jumlalardagi tuyg‘un, qoz so‘zları Navoiy asarlarining ko‘p tomli izohli lug‘atida e’tirof etilmagan. Navoiyning tilsimli tilida qo‘llanilgan tuyg‘un so‘zi qirg‘iy yoki qarchig‘ayning erkagi ma’nosini

---

<sup>11</sup> Алишер Навои. Возлюбленный сердце. Сводный текст подготовил А Н Кононов. М.-Л.; Алишер Навоий. Асарлар XIII жилд,- Т.

<sup>12</sup> Alisher Navoiy. «Mahbub ul —qulub». — T., 1998, XIX jild, 15-bet.

anglatsa<sup>13</sup>, *qoz* so‘zi esa, «suvda suzuvchi yirik qush, g‘oz» ma’nosini anglatib, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi *g‘oz* so‘zining dastlabki fonetik variantdoshi hisoblanadi. *Qoz* so‘zi ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan hozirgi o‘zbek adabiy tilida, shuningdek sheva materiallarida qo‘llanilib kelinmoqda.

Demak, «Mahbub ul —qulub» asaridagi o‘z qatlamiga xos yangi aniqlangan so‘zlarning ayrimlari turli sohalarga oid bo‘lib, hozirgi o‘zbek adabiy tilining lug‘aviy tarkibiga nisbatan unchalik katta o‘zgarishlarga uchramagan deyish mumkin. Bu xildagi leksik birliklarning iste’mol doirasi ham chegaralanmagan: *cholg‘uchi* (MQ, 31), *yasancoq* (MQ, 121), *yolg‘onchi* (MQ, 99), *yo‘rg‘a* (MQ, 42), *sog‘lig‘* (MQ, 38), *tillik* (MQ, 42) va boshqalar. Bundan tashqari asar tilidagi yana bir qator turkiy so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tilida ma’nosi toraygan: masalan: *toqcha* so‘zi «Mahbub ul —qulub» tilida bir o‘rinli qo‘llanilib, «uya», «in» ma’nosida ham qo‘llangan: «obodlar aning zulmidan vayrona, kabutar toqchalari boyqushg‘a oshiyona» (MQ, 15). Bu so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida asosan mahalliy uylarda idish — tovoq va anjomlar qo‘yish uchun devorga o‘yib ishlangan maxsus joy tushuniladi . Alisher Navoiyning «Nasoyim ul — muhabbat» asarida esa hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi ushbu ma’nosi ham qo‘llangan: «Va Shayxning xilvatig‘a kirib ziyorat qilurda o‘z ijozatnomalarining savodini ko‘rubdurlarki, bir tokchada ermish olibdurlar va ham — ul dastur bila toliblar va murshidlarg‘a tarbiyatg‘a mashhg‘ul bo‘libdurlar». <sup>14</sup>

Piri tilovat qilurda da im tiflning yelpug‘uch bila varaqni sovurmog‘i kudurat yetkurur» (MQ, 84). Ushbu so‘z Mahmud Koshg‘ariyning «Devonu lug‘otit churk» asarida qarlug‘och tarzida qayd etilgan (DLT, 352). Ko‘rinadiki, mazkur so‘z ham hozirgi o‘zbek adabiy tiliga nisbatan shakliy o‘zgaritga yuz tuggan. Bu toifa fonetik o‘zgarishlarga uchragan so‘zlar talaygina qismni tashkil etadi: *ochg‘uchi* (MQ, 7) > *ochuvchi*; *1qarlug‘och* (MQ, 84) > *qaldirg‘och*; *chopqu* (MQ, 48) > *chopqi*; *cholg‘uvchi* (MQ, 31)

<sup>13</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. - M., 1983, II jild, 198 -bet .

<sup>14</sup> Alisher Navoiy. «Nasoyim ul -muhabbat». - T., 2001, XVII jild, 346 -bet.

> cholg‘uchi; yuraksizliq (MQ, 92) > yuraksizlik; unutquvchi (MQ, 98) > unutguvchi; tutquvchi (MQ, 98) > tutguvchi; tushurguvchi (MQ, 56) > tushirguvchi; sochuchi (MQ, 7) > sochg‘uvchi; sog‘lig‘ (MQ, 38) > sog‘liq; yoqilg‘uvchi (MQ, 92) > yoqilguvchi). Biroq «Mahbub ul-qulub»dagi ko‘plab turkiy so‘zlar hech qanday fonetik o‘zgarishlarsiz hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadi: deguvchi (MQ, 14), yolg‘onchi (MQ, 14), yo‘rg‘a (MQ, 42), ko‘rguvchi (MQ, 86), olg‘uvchi (MQ, 18); solguvchi (MQ, 66), so‘zlaguvchi (MQ, 27), o‘qig‘uvchi (MQ, 11) > o‘qiguvchi.

## **1.O‘z qatlam leksikasi**

O‘zbek tili o‘z qatlam leksikasining kam o‘rganilganligi manbalarda qayd etilgan<sup>15</sup>. Ammo keyingi yillarda bu borada bir qator tadqiqotlar yaratildi.<sup>16</sup>

“Mahbub-ul qulub”dagi turkiy leksika voqelikni, muallif fikri, tasavvuri, dunyoqarashi, qiziqishlari, orzu-armonlarini aks ettirishga xizmat qilgan. So‘zning ifoda semalarini badiiy uslubda maqsadga muvofiq aks ettirish ijodkorming tafakkur darajasi, badiiy mahorati bilan belgilanadi.

“Mahbub-ul qulub”da o‘zbek tilining qadimgi turkiy til, eski turkiy til, eski o‘zbek adabiy tili davridagi leksik xususiyatlari aks etgan. “Asardagi turkiy leksika ikki jihatdan yoritildi: 1.Turkiy so‘zlarning qadimgi turkiy tilga<sup>17</sup> munosabati. 2.Turkiy so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati.

XV asrning leksik xususiyatlari aks etgan nomalarda qadimgi turkiy tilga mansub bir qator so‘zlarning mavjudligi kuzatiladi.<sup>18</sup> Navoiy asarlarida 1400ga yaqin qadimgi va eski turkiy til so‘zleri qo‘llangan.<sup>19</sup> Eski turkiy til va eski o‘zbek tili harbiy leksikasining semantik-funksional, tarixiy-etimologik, struktur-grammatik tahlili ko‘pgina harbiy terminlar XIV-XV asrda arabcha, forscha-tojikcha, ayniqsa, mo‘g‘ulcha o‘zlashmalar bilan ifodalana boshlaganini ko‘rsatsada, eski o‘zbek adabiy tili harbiy leksikasi asosini qadimgi turkiy so‘zlar tashkil

<sup>15</sup> Begmatov E. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining leksik qatlamlari.-Toshkent: Fan, 1985. -B. 4.

<sup>16</sup> Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining turkiy qatlami. -Toshkent, 2000.

<sup>17</sup> Qiyoslashda, asosan, DTSga tayanilgani bois, ayrim eski turkiy til davri manbalariga nisbatan ham qadimgi turkiy til termini qo‘llandi.

<sup>18</sup> Jumayev A. XV asr o‘zbek nomalarida qadimgi turkiy so‘zlarning qo‘llanishi // O‘zbek tili va adabiyoti.-1991. -№5. -B. 47-49.

<sup>19</sup> Egamova Sh. Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi (struktur-grammatik, funksional-semantik aspektlarda). Filol. fan. nom... diss.-2007.

etgan. Eski o‘zbek tili manbalariga doir tadqiqotlar ham shu fikrni tasdiqlaydi. XI-XIV asrlarda yaratilgan qo‘lyozma manbalar tilida iste’mol qilingan 700ga yaqin ijtimoiy-siyosiy terminlarning 640 dan ortig‘i Navoiy asarlarida kuzatilishi ta’kidlangan. Qadimgi turkiy til olmoshlari ayrim fonetik o‘zgarishlar bilan to‘la holda eski o‘zbek adabiy tilida saqlangan. Qadimgi turkiy til so‘zlarining aksariyati eski o‘zbek adabiy tili davrida, asosan, hech qanday o‘zgarishlarsiz, ayrimlari fonetik yoki semantik o‘zgarishlar bilan qo‘llangan.

1.Qadimgi turkiy til davriga xos ma’nolarda qo‘llangan so‘zlar. “Mahbub-ul qulub” leksikasidagi turkiy leksikaning asosini qadimgi turkiy tilga xos ma’nolarda qo‘llangan so‘zlar tashkil etadi. Masalan:

Narsa-hodisa nomlari, mavhum otlarning aksariyat qismi semantik o‘zgarishlarsiz ishlatilgan: tuz “dala”, “dasht”, “sahro”, “cho‘l”: ...cherigi va Nosavob xayoli tuz chiqmasa, shirkati yo‘qlarg‘a itob va balki xabari yo‘qlarga aroda azob.

Belgi bildiruvchi so‘zlar ham qadimgi turkiy til davriga xos tushunchalarni anglatgan: bo‘rtog“ “past-baland yer, o‘ngqir-cho‘ngqir” Navoiy asarlarida ham ikki o‘rinda izohlangan: burtoq “pastu baland, notejis, buzuq” (ANATIL,I,337), bo‘rtog“ “notejis, mashaqqatli” (ANATIL,I,347). Boshqa-boshqa birlik sifatida izohlangan bu so‘zshakllar ma’nosiga ko‘ra bir so‘z hisoblanadi. P.Shamsiyev lug‘atida bir so‘zning ikki xil shakli sifatida keltirilgan (NAL,137).

2.Semantik o‘zgarishlar bilan qo‘llangan turkiy so‘zlar. Asarda bir qator so‘zlarning semantik strukturasida ayrim semalarning iste’moldan chiqishi kuzatiladi. So‘zning semantik tarkibidagi muayyan semalar eski o‘zbek tili davriga qadar iste’moldan chiqqan. Bunday so‘zlar eski o‘zbek adabiy tili davrida qo‘llangan qadimgi turkiy so‘zlarning asosini tashkil etadi. So‘zlar semantik strukturasidagi ma’no torayishi hodisasini, ya’ni muayyan semalarning iste’moldan chiqish jarayonini quyidagi misollar orqali kuzatish mumkin. M., “*aralashtirmoq*”, “*qo’shmoq*” (DLT,I,382), “*aralashmoq*”, “*qo’shilmoq*” ma’nolaridagi *qatfe’lidan* yasalgan *qotil-* so‘zi hozirda ishlatilmaydi. *Qotil-* Navoiy asarlarida ham “*qo’shilmoq*”, “*aralashmoq*” ma’nolarida qo‘llangan (ANATIL, IV,68). *Qotil-* “Mahbub-ul qulub”da quyidagi ma’nolarda kelgan: a) “*birlashmoq*”: *ahli dillar*

*ko 'ngli bu ishq shu 'lasi nuridin va ul shu 'la nuri sururidin ayrulmasunlar va riyoyi zuhd xaylig 'a qotilmasunlar; b) qo 'shilmoq ma'nosida: Oldurg 'ondin so 'ngra ul sayd boshi ustida tutib o 'run, qoni to 'lg 'on zabunni bismil qilmashdin burun, ne deyki qanotin suvurib, qo 'ltig 'inmu yoradur va o 'zi ul qotil shogirdin shaaf bila to 'yg 'oradur. Qotil- so 'zining vazifaviy (harakat nomi) shakli metonimik ma 'no ko 'chishi natijasida "suvning qo 'shilish joyi" tushunchasini bildirib kelgan: Ammo "ishtirok etmoq (biror nimada)", "ma 'qullamoq", "qo 'llab-quvvatlamoq", "tan olmoq" ma 'nolari (DTS,435) kuzatilmaydi. Qayd etilgan semalar eski o 'zbek adabiy tili davriga kelib iste'moldan chiqqan. So 'zning semantik strukturasida ma 'no torayishi yuz bergen.*

"Mahbub-ul qulub" dagi turkiy so 'zlar hozirgi o 'zbek adabiy tili davridagi iste'mol darajasiga ko 'ra quyidagicha ajratildi:

- 1.Hozirgi o 'zbek adabiy tilida qo 'llanadigan turkiy so 'zlar.
  - 2.Hozirgi o 'zbek adabiy tilida qo 'llanmaydigan turkiy so 'zlar.
- 1.Hozirgi o 'zbek adabiy tilida qo 'llanadigan turkiy so 'zlar ikkiga ajratildi:
- 1) semantik jihatdan o 'zgarishsiz qo 'llanadigan so 'zlar;
  - 2) semantik strukturasida o 'zgarish yuz bergen so 'zlar.

Semantik jihatdan o 'zgarishsiz qo 'llanadigan so 'zlar eski o 'zbek adabiy tili davriga xos ma 'nolarni ifodalaydi. Bunday so 'zlar ayrim fonetik o 'zgarishlar bilan qo 'llanadi. Harakat-holat (kelmoq, bormoq, ko 'rushmoq, otlanmoq, yubormoq); belgi bildiruvchi (yaxshi, yomon, keng), narsa-buyum otlari (to 'n, chodir), ayrim shaxs otlari (elchi, singil), hayvon nomlari (oq bo 'zak, qilquyruq), olmoshlar (men, sen, ul, anga, mundoq), frazemalar (qo 'l ko 'tarmoq, og 'iz ochmoq) shular jumlasidandir.

Semantik strukturasida o 'zgarish yuz bergen so 'zlar semantik o 'zgarish xarakteriga ko 'ra: a) mustaqil, lug 'aviy ma 'nosini saqlagan, semalar ko 'lamida torayish yuzaga kelgan so 'zlar; b) mustaqil lug 'aviy ma 'nosini yo 'qotgan (hozirgi o 'zbek adabiy tilida mustaqil qo 'llanmaydigan) so 'zlarga ajratildi.

## **2.O 'zlashgan qatlam leksikasi**

O‘zbek tilining o‘ziniki bo‘lмаган, boshqa tillardan kirib kelgan so‘злар о‘злашган qatlamni tashkil etadi. Asar leksikasi tarixiy - etimologik genezisiga ko‘ra o‘з qatlam va o‘злашган qatlam so‘зларидан iborat.

«Mahbub ul —qulub» asari tilida «Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati»da izohlanmagan o‘злашма qatlamga mansub arabcha, forscha so‘злар ham talaygina qismni tashkil etadi: devkirdor (MQ, 66) — badkirdor, yomon fe’lli badkor; mugahavvir (MQ, 75) — jasur, qo‘rqmas, dilovar; satvat (MQ, 70) — shukuh, dabdaba, shavkat, hujum, hamla, qahr; ta’zib (MQ, 57) — qiyonoq, ozor berish; zillulloh (MQ, 12) — Ollohnning yerdagi soyasi; minnatsiz (MQ, 99) — beminnat; muzmin (MQ, 74) — dardi bedavo, davosiz dardga mubtalo bo‘lgan; . nomastur (MQ, 42) — nopok; nuhusatshior (MQ, 95) — shum niyatli, badbaxt; pushtakash (MQ, 37) — jo‘yak oluvchi; razillik (MQ, 34) — chubanlik, pastkashlik, nokaslik; rahnagar (MQ, 22) — putur yetkazuvchi; huzuz (MQ, 56) — lazzat, nasiba va boshqalar.

Alisher Navoiy asarlaridagi o‘злашган qatlamning aksariyat qismini arab va fors-tojik tilidan o‘злашган so‘злар tashkil etadi. Sababi, Navoiy davrida fan tili – arab tili bo‘lgan bo‘lsa, ijod tili – fors-tojik tili edi.

Arabcha so‘злар Navoiy davrida, ya’ni eski o‘zbek adabiy tili davrida faol qo‘llangan. Shu sababli “Mahbub ul -qulub” asarida ham XIV-XV asrlar da keng qo‘llangan arabcha so‘злар aks etgan. Asar tilida qo‘llangan arabcha so‘злар ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohasiga oid til birliklaridan iborat. Bulardan eng ko‘p qo‘llangani diniy atamalar, antroponimlar, shaxs fe’l-atvorini ifodalovchi, mavhum tushuncha bildiruvchi so‘зларdir. Masalan:

*Antroponimlarni ifodalovchi arabcha so‘злар:* Masih, Mahmud, YA’qub, Ja’far, Jabroil ,Homon, Rustam, Yusuf Kan’oniy....

*Shaxs fe’l-atvorini ifodalovchi arabcha so‘злар:* Odil, oqil, fosiq, kofir, mo‘min, sitamkor, darveshvash, g‘ofil.

Mavhum tushuncha bildiruvchi arabcha so‘злар: falokat, ishq, safar, visol, g‘urbat, ko‘ngul, jahl, fahm, idrok, vahm, azm, azimat, zarofat, safohat.

Navoiy o‘z asarida izofalardan ham keng foydalangan: M., a) *kishi ismlari*, *nisbalar*: *Ruh ul—amin — Jabroil* (a. s.)*ning laqabi*, *Xojai kavnayn* b) *kitob nomlari* “*Mantiq ut-tayr*”, “*Lison ut-tayr*”, “*Qur’oni karim*” *kabi*.

“Mahbub ul -qulub”da qo‘llangan arabcha so‘zlarning ma’lum qismi eski turkiy til davrida ham iste’molda bo‘lgan. Arab tiliga xos umumlashtiruvchi otlar (*adavat, alam, aqibat, ävr, bäla, adl, aman, arz, adat, näsäb, imarat, zarofat*); belgi bildiruvchi (*aziz, azab, arjumand*), shaxs fe'l-atvorini sifatlovchi (*ta'b, ta'ma, fasiq, fitna, mutaddajjin*), diniy tushunchani ifodalovchi so‘zlar (*dua, namoz, azon*); narsa-hodisa nomlari (*bina, xil'at, kafür*) asar matnida ham lug‘atlarda qayd etilgan ma’nolarda uchraydi. Bu so‘zlarning ma’lum qismi hozirgi kunda turkiy tillar leksikasida ham saqlanib qolgan.

Asarda qo‘llangan fors-tojikcha so‘zlarning aksariyatini: *kishi ismlari*; *joy nomlari*; *qavm-qabila*, *nasl-nasab nomlari*; *hayvon nomlari*; *o’simlik nomlari*; *kitob va risola nomlari*, belgi bildiruvchi so‘zlar, narsa-hodisa nomlarini bildiruvchi so‘zlar tashkil etadi.

Asar leksikasidagi forscha-tojikcha so‘zlardan: *Adina, azab, azar, , bad, sara, daru, darman, arasta, zahr, pasban, abadan* kabilar eski turkiy tilda ham qo‘llangan.

“Mahbub ul -qulub” leksikasidagi forscha-tojikcha so‘zlar turli obyekt va tushunchalarni ifodalab kelgan. Jumladan, narsa-buyum, hodisa, jarayon nomlari keng qo‘llangan: *sang, zamon, davron, mehr, xunbah, parishon, farovon*.

Belgi-xususiyatni ifodalovchi forscha-tojikcha so‘zlar: *hamroh, rost lavand, xushbosh*.

LAVAND - “bo‘sh, yalqov, dangasa, bekorchi” ma’nosidagi so‘z. *Gadozodai xiradmand - akobir hamrozi, g‘aniyzodai lavand -arzol damsozi*. (67).

Narsa-buyum belgisini bildiruvchi so‘zlar ko‘chma ma’noda shaxs fe'l-atvorini yoritishga xizmat qilgan: XUSHBOSH - “xushta’m, mazali, lazzatli“. *Farog ‘atdo ‘st va xushbosh kishi erdi* (85).

Asarda forscha-tojikcha izofalar ham uchraydi: *duoyi bad; tolibi ilm; dunyoyi bebaqo kabi*.

Ba’zi so‘zlar asar leksikasida ko‘p ma’nolilik xususiyatlari bilan namoyon bo‘lgan. Masalan: PARISHON - “tarqoq, sochilgan, yoyilgan”; “faromush, e’tiborsiz”, tartibsiz” . U quyidagi ma’nolarda qo‘llangan: a) “tarqoq”: *bu xoksori parishon ro‘zgor shabob avonining bidoyatidin kuhulat zamonining nihoyatig‘acha davron voqeotidin va sipehri gardon hodisotidin va dahri fitnangiz buqalamunlug‘idin va zamonai rangomiz gunogunlig‘idin muddati madid va ahdi baid har nav’ shiq va suratda aqdom urdum* (162); b) “xunuk”, “yoqimsiz”: *So‘zi hisobsiz - o‘zi ihtisobsiz. so‘zida parishonliq, o‘zida pushaymonliq* (57); v) “yoyilgan holda”: *Zindon chohidin o‘g‘rilar ko‘ngli tiyraligi ma’lum, jurm ahlig‘a anda parishon ko‘ngulda havotirdek hujum...); g) “tarqatmoq”: ... *jamiyati zohir tilabu botin parishonlig‘lari anga yetgan.*(67); d) “qat’iyatsiz”, “tuturiqsiz”: *Mulk buzug‘lig‘idin zamiriga jam’iyat va ulus parishonlig‘idin xotirig‘a amniyat... va har tavr suluk va kisvatda yugurdum va o‘zumnn yaxshi-yamon xizmat va suhbatig‘a yetkurdim* (154)....*

Forscha-tojikcha so‘zlar ba’zi o‘rinlarda sifatdosh shaklida ham kelgan: PISANDIDA - “ko‘zga ilinadigan”, “ma’lum bo‘lgan” ma’nolarini ifodalab keladi: *Muharrirki, tahriri tuz pisandidadur, agar bir bayt bitir, agar yuz.*(13)

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiyning “Mahbub ul -qulub” asari tilida ham arab va fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohasini qamrab olgan va bulardan eng ko‘p qo‘llangani diniy atamalar, antroponimlar, shaxs fe’l-atvorini ifodalovchi, mavhum tushuncha bildiruvchi so‘zlardir.

Tadqiqotda “Mahbub-ul qulub”dagi turkiy tilga mansub bo‘lmagan so‘zlar qatlami ikkiga ajratildi<sup>20</sup>:

1.O‘zlashgan so‘zlar: arabcha so‘zlar; forscha-tojikcha so‘zlar.

Bunday so‘zlar o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashib, turkiy so‘zlar bilan sinonimik munosabatda (ayrimlari turkiy so‘zlarni iste’moldan chiqargan) qo‘llangan: “o‘zlashma” terminining semantik-struktur mohiyati ham shuni taqozo etadi (TTIL, 138). 2. Chet so‘zlar – o‘zbek tiliga o‘zlashmagan, o‘zga til xususiyatlarini,

---

<sup>20</sup> Lingvistik terminlar lug‘atida chet so‘z (inostrannoye slovo) va o‘zlashgan so‘z (inoyazichnoye slovo) farqlangan.

shu tilga mansub xalqning yashash tarzi, urf-odati, milliy til kaloritini ifodalashda qo'llanadigan so'zlardir.<sup>21</sup>

### **Arabcha so'zlar**

Arabcha so'zlar eski o'zbek adabiy tilida faol qo'llangan. "Mahbub-ul qulub"da XV-XVI asrlar o'zbek adabiy tilida keng qo'llangan arabcha so'zlar aks etgan. Asarda arabcha o'zlashmalar bilan bir qatorda arab tiliga oid chet so'zlar ham uchraydi. Bu so'zlar Qur'onidan olingan oyatlar, arabcha sarlavhalar tarkibida keltirilgan..

Alisher Navoiy o'z asarlarida umri davomida 26035 so'zdan foydalangan bo'lib, ularning kattagina qismini arabcha so'zlar tashkil etadi. Jumladan, adibning "Mahbub ul -qulub" asarida ham o'sha davr ijtimoiy hayotining deyarli barcha sohasiga oid til birliklarining aksariyatini arabcha so'zlar tashkil etadi. Asar leksikasidagi arabcha so'zlar eski o'zbek adabiy tili davriga xos ma'nolarda qo'llangan.

Navoiy eski o'zbek tiliga o'zlashgan tayyor arab tilidagi izofalardan foydalangan: M., a) oy nomlari: Rabi-ul axir; Rabi-ul avval; b) kishi ismlari, nisbalar: Hazrati amir ul - mo'minin Usmon; v) kitob nomlari "Mantiq ut- tayr", "Lison ut-tayr" kabi.

Arabcha so'zlarning eski o'zbek adabiy tiliga xos ma'nolarini quyidagi so'zlar semantik tahlili orqali kuzatish mumkin.

Arabcha *azm* asosidan shakllangan *azimat* so'zi lug'atlarda "qasd, niyat, jazm; "intilish, yo'l olish"; "qo'shin tortib borish, yurish qilish, jo'nash"; "vafot qilish, o'tish"; "safarga chiqish, yurish qilish"; "qat'iy qaror" ma'nolarida qayd etilgan. "Mahbub ul -qulub"da bu so'z bir necha o'rinda qo'llanib, quyidagi ma'nolarda kelgan: 1)"yurish": *Bashar xayli dori baqog'a ahli azimatduri va tiriklik bir necha kun g'animatduri* (56); 2) "safar": *Shayx Ibrohim Sitnaba bir muridi bila (quddisa sirruhumo) tavakkul qadami bila Ka'ba azimati qildilar* (42); 3) qo'shma fe'l tarkibida "qasd qilmoq" ma'nosini ifodalagan: *Har dushvor*

<sup>21</sup> Chet so'zlar termini "varvarizm"ga teng mazmunda izohlangan (TTIL,127,27). "Varvarizm" o'zlashmagan "chet so'zlar"ni ifodalovchi termin sifatida izohlansa-da, shu so'zlarning noo'rin qo'llanishiga ko'ra "tildagi meyorga zid birliklar" tushunchasini anglatadi.

*ishki, mol sarf etmak bila tuyassardur - qilmasang jong'a xatardur, sarfin g 'animat bil va salomat sori azimat qil* (52).

Zarofat asosan “zariflik”, “nozik fahmlilik”, “xushchaqchaqlik”, “go‘zallik”, “ajoyib” ma’nolarini ifodalaydi. “Navoiy asarlari lug‘ati”da bu so‘z “qochirim”, “hazilnamo so‘z“ tushunchalarida ham qo‘llanadi va “go‘zallik”, “nafislik”, “noziklik”, “teran fikrlilik” ma’nolaridagi zarifi so‘ziga asosdosh hisoblanadi. Masalan: *Ul zarofat va ibbhatdur, andinki o‘tti safohat.*

*G‘arib* – Navoiy asarlarida bu so‘z ikki xil ma’noda, omonim so‘z sifatida qo‘llanadi. 1) “musofir, boshqa joydan kelgan, kimsasiz” ma’nosida: *Uchinchi nav’ - bulardin dag‘i g‘aflatkirdorroq va la’natqa sazovorroq ham o‘tubturlarkim, g‘arib da’vi yo‘lin tutubturlar* (42). *Har nav’ she’rg‘aki, mayl ko‘rguzdi, anga maoniyi g‘ariba ko‘p yuzlandi.*(85) 2) Va goh g‘urbatda alil va g‘arib elga zalil bo‘ldum(2). 2) “ajoyib, qiziq, kamyob” ma’nosida qo‘llanadi: *Bu nav’ sa’b hol behaddur va mundoq g‘arib ahvol beadaddur*(20); *Va goh shahrim eli sitamidin g‘urbatka tushtum va g‘arib xaloyiqka o‘shuldum va qovushtum.* *G‘arib xayoloti va g‘oyatsiz bul ajablar va nihoyatsiz rangu taablarga yuzlanibdur va aning izhori lozim kelibdur* (39).

*Tavr* - “surati hol, tarz, ravish, yo‘sinti, nav”; “odat, qiliq, usul, tartib” ma’nolarida qo‘llangan: *Bu tavrda yana azizlar ham jilva qilurlarkim, zamon ahli taammul qilsalar borin bilurlar*(42). *Va ba’zi turk hukamosi va bu qavm oqilu donosi o‘z tavrlari birlaki, kalom surubturlar oni bo‘z kiyizga o‘xshata masal urubturlar, ya’ni suvdin va tufrog‘din yuziga ne kelsa tahammul qilur, ya’ni o‘ziga singirur*(57); *va har tavr suluk va kisvatda yugurdum va o‘zumni yaxshi-yamon xizmat va suhbatig‘a yetkurdim*(2).

“Mahbub ul-qulub”da o‘z ma’nolarida qo‘llanadigan so‘zlar arabcha o‘zlashmalarning asosiy qismini tashkil etadi. *Muddat, muddao, manzil, azob, muloqot, mahrum, navohi, saxovat, xasis, mashhur, va’da, inoyat, shafqat* tuyassar, *martaba, muxolif, nuqson, muqarrar, rasm, zohir* kabi so‘zlar semantik jihatdan eski o‘zbek adabiy tili davriga xos ma’nolarda qo‘llanadi.

Ba’zi o‘rinlarda asarda semantik o‘zgarishlar bilan qo‘llanadigan arabcha so‘zlar ham uchraydi. Masalan:

*G‘araz* - arab tilida “maqsad”, “yomon niyat” ma’nolarini ifodalaydi. Navoiy asarlarida “maqsad, niyat, qasd”; “yomon niyat, badxohona qasd”; “kek, ichdan (maxfiy) yuritilgan dushmanlik“ ma’nolarida qo‘llangan: *Birisiga g‘araz o‘z muddaosi, Birisi qasdi in’om iltimosi.*

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida “g‘araz” - “maqsad, niyat, manfaat, yashirin yomon niyat, zarur narsa”; “yomonlik ko‘zda tutilgan maqsad, ko‘rolmaslik” ma’nolarini bildiradi.

*G‘urbat* - arab tilida “begona yurt”, “o‘zga yurtdagi hayot” ma’nolarini anglatadi. Eski o‘zbek tilida “g‘ariblik, kimsasizlik, musofirlik, o‘z vatanidan uzoqda qolish“ tushunchalarini ham anglatgan: *Va goh g‘urbatda alil va g‘arib elga zalil bo‘ldum.*(2). Hozirda “g‘am-g‘ussa, xafalik, kulfat” ma’nolarida ishlatiladi. Ko‘p o‘rinlarda mehnat so‘zi bilan yonma-yon kelgan. Mehnat arab tilida “sinov”, “kulfat” ma’nolarini anglatadi. Eski o‘zbek tiliga “mashaqqat, og‘irlik“ ma’nosi bilan o‘zlashgan: *Bu savdodin kechsang sanga bu mehnatdin qutulmoqdur, manga ham bu boshtin ayog‘ balodin halos bo‘lmoqdur.*(77)

Hozirgi o‘zbek adabiy tili davriga kelib “jismoniy yoki aqliy ish faoliyat“ tushunchasini kasb etgan, “kishining aql yoki kuch bilan amalga oshadigan maqsadli faoliyati; ish“ ma’nosida qo‘llanadi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida ham “azob-uqubat“ semasi mavjud. Lekin bu sema keyingi e’tiborda bo‘lib, “azob-uqubat natijasidagi faoliyat” tushunchasi birinchi o‘ringa chiqqan. So‘zning semantik strukturasida o‘zgarish yuzaga kelib, tushunchaning kishilik jamiyatidagi ijobjiy ahamiyatini ta’kidlovchi sema shakllangan.

“Mahbub ul-qulub”da qo‘llangan arabcha o‘zlashmalarning o‘zbek adabiy tiliga munosabati quyidagicha izohlandi: 1. Arabcha so‘zlarning eski o‘zbek adabiy tiliga munosabati. 2. Arabcha so‘zlarning hozirgi o‘zbek adabiy tiliga munosabati.

Arabcha so‘zlarning eski o‘zbek adabiy tiliga munosabati

“Mahbub ul-qulub”da qo‘llangan arabcha so‘zlarning ma’lum qismi eski turkiy til davrida ham iste’molda bo‘lgan. Arab tiliga xos umumlashtiruvchi otlar

(‘adavat, ‘ajb, ‘alam, ‘aqibat, ävr, bälä, ‘adl, aman, ‘arz, ‘adat, näsäb, imarat); belgi bildiruvchi (aziz, azab, aziz), shaxs fe'l-atvorini sifatlovchi (ta'b, ta'ma, fasiq, fitna, mutaddajjin), diniy tushunchani ifodalovchi so'zlar (du'a, vird); ilmiy terminlar (bajt), narsa-hodisa nomlari (bina, xil'at, kafür) asar matnida ham lug‘atlarda qayd etilgan ma'nolarda uchraydi. Bu so'zlarning ma'lum qismi turkiy tillar leksikasida saqlanib qolgan. M., ablaq “ola“.

“Mahbub ul-qulub”da arabcha so'zlarning eski o'zbek adabiy tili davriga xos quyidagi xususiyatlari aks etgan: 1) ko'plikdagi otlar birlik ma'nosida qo'llangan: *tuyur, vuhush, maqobir, aytom; Raoyo* - “*xalq*” ma'nosidagi raiyyat so'zining ko'plik shakli (NAL,522): Bu kentta raoyoning uylariga tushtuk (152). *Af'ol-* “*harakat*”, “*qiliq*” ma'nosidagi fe'l so'zining ko'plik shakli (NAL,66): ...*har kim Xisravshohning bu af'olini eshitsa, la'nat qilsun...*(116); *Tavobi*“*ergashuvchilar, tobe' kishilar*“ (NAL,583). *Lavohiq* “*qo'shilganlar, qo'shimchalar*“ (NAL,330): Og'a-ini va tavobi' va lavohiqi bila Hisorg'a tortti (155). ”*Zarar, ziyon*” ma'nosidagi so'zning ko'plik shakli *mazarrat* (NAL,351) “Mahbub ul-qulub”da “*balo*”, “*falokat*”, “*ko'ngilsizlik*” ma'nolarini ifodalagan: *Men bu duoni o'qub edim, aning xosiyatidin edikim, tengri taolo bu mazarratni daf' qildi* (262); 2) so'zlar masdar (*mutabarrak mubayyan tahakkum, tawahhum, favt*), ko'plik (ahodis), sifatdosh (*mutaassir, mutaalliq, mutaayyin, mutahayyir, mutaaffin*) shakllarida kelgan. *Muttafiq* “*birlashgan, ittifoqdosh, do'st; hamfikr*” (NAL,429): *Qanbar Ali sallox muttafiq bo'lub, Tanbalg'a qasd qilurlar* (155). *Tasallut* “*istilo, hukmronlik*” *Mustalahot* (*istilohot*) “*ifoda, idiomalar*”. Shu ma'noni ifodalovchi isloh (NAL,281) so'zi qo'shma fe'l tarkibida kelgan: *Qo'rg'onning burj va borusini shikast va rixtini beklarga va sipohilarga farmon bo'ldikim, isloh va marammat qilg'aylar* (216). Ushbu jumladagi marammat (tuzatish, tiklash - NAL, 363) ham mustalahot va isloh so'zlariga sinonim hisoblanadi. *Tavaqquf* “*to'xtash*”, “*tek turish*” (NAL, 582): *Tahqiq* “*biror narsaning haqiqatini izlash, tekshirib ko'rish, haqiqat qilish*” (NAL,606): *Tahqiqini* kishi bilmadi (154). *Mahfuz* “*muhofaza qilingan, saqlangan*“ (NAL,388); *mastur* “*berkitilgan, pardalangan*“ (NAL,371); “*yashirin,*

*berkitilgan*” (TRS,218): Ahli va ayollari bisyor mahfuz va masturdur (195). Muhaqqar “past, ko‘rimsiz”Kobul muhaqqar yerdur, sayfiydur, qalamiy emas (204). Mohazar Navoiy asarlarida “biror narsaning hozir bo‘lgani, tayyor turgani” (TRS,234) haqidagi tushunchani anglatuvchi ideomatik ibora sifatida ta’riflangan (NAL,399).

Asar leksikasidagi arabcha so‘zlar eski o‘zbek adabiy tili davriga xos ma’nolarda qo‘llangan. Arabcha so‘zlarning eski o‘zbek adabiy tiliga xos ma’nolarini quyidagi so‘zlar semantik tahlili orqali kuzatish mumkin.

Ko‘rinadiki, Alisher Navoiyning “Mahbub ul -qulub” asarida uchraydigan arabcha so‘zlarning semantik imkoniyati, uslubiy xususiyatlari ularning faol qo‘llanishiga asos bo‘ladi.

## 2-BOB.

### “MAHBUB-UL QULUB” LEKSIKASINING SEMANTIK MAYDON ASOSIDAGI TASNIFI

#### **2.1.Shaxs va shaxs faoliyati bilan bog‘liq semantik maydon**

Til birliklarining obyektiv olam, reallikni ifoda etishini va, aksincha, obyektiv olam, borliqning semantik mazmun orqali umumlashtirish jarayoni mavjudligini talqin qilish semasiologik va onomasiologik yo‘nalish sifatida izohlanadi. Semasiologik tahlil lug‘aviy birliklarning semantikasi va u bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalar nuqtai nazaridan o‘rganishdir. Semasiologik yo‘nalishda so‘zlar “shakldan-ma’noga” tamoyili asosida o‘rganiladi. Onomasiologik yo‘nalishning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, obyektiv olamdagи makro va mikro olamlarning tilda qanday ifodasini topishiga e’tibor qaratiladi. Onomasiologik planda yo‘nalish ma’nodan, semantik predmetlardan shaklga qarab boradi. Semantik predmet (realema) muayyan lisoniy belgi orqali ifodalangan borliqdagi real predmetlarning belgilar majmuasidir.<sup>22</sup> Aniqrog‘i, muayyan xususiyatlariga ko‘ra umumiylitka ega bo‘lgan real predmetlarning belgilar yig‘indisidir.

Til birliklarining muayyan birlashtiruvchi ma’nolar asosida ma’lum paradigmalarga guruhlanishi “maydon” termini bilan yuritiladi. Semantik maydon ma’lum bir arxisema asosida birlashuvchi so‘z va iboralar majmuidir. So‘zlarni semantik maydon asosida o‘rganish mavzuiy tasniflashga qaraganda kengroq doiradagi semantik predmetga asoslanadi. So‘zning til taraqqiyoti muayyan bosqichidagi qo‘llanishi uning semantik maydondagi o‘rni bilan belgilanadi. Shu

---

<sup>22</sup> Iskandarova Sh. Onomasiologiya muammolari va o‘zbek tili leksikasini maydon sifatida o‘rganish// O‘zbek tili va adabiyoti.-1998.-№3.-B.29-30.

jihatdan mazkur bobda “Mahbub ul -qulub” leksikasining semantik maydon asosidagi tasnifi yoritildi.

Navoiy voqelikni o‘ziga xos uslubda haqqoniy tasvirlaydi. Atrofidagi narsa-hodisalarga sinchkovlik bilan yondashadi. Har bir mavjudlikning mohiyatiga yetishga intiladi. Izoh, sharh, tasvir jarayonida o‘z bilim darajasini, dunyoqarashini namoyon eta boradi. Asardagi so‘zlar o‘ziga xos semantik maydonlarga mansubdir. Asar leksikasining funksional-semantik xususiyatlari muayyan semantik maydon doirasida reallashadi. “Mahbub ul -qulub” leksikasi quyidagi semantik maydon va makro va mikro guruhlar tasnifi asosida izohlandi.

Shaxs va shaxs faoliyati bilan bog‘liq semantik maydon

Shaxs va shaxs faoliyati bilan bog‘liq semantik maydon shaxs ismini bildiruvchi, shaxsning tashqi ko‘rinishini ifodalovchi, shaxs fe’l-atvorini, ruhiyatini, yaqinlarini aks ettiruvchi so‘zlar guruhini o‘z ichiga oladi.

Onomastikaning mazmun mohiyati, soha doirasidagi masalalar tadqiqotlarda yoritilgan.<sup>23</sup>

“Mahbub ul -qulub”da eng ko‘p uchraydigan nomlardan biri kishi ismlari – antroponimlardir.

. *Shaxs ismini bildiruvchi semantik guruh.* Turkiy xalqlarda shaxs ismlarini o‘rganish XIX asrning oxiri - XX asr boshlarida amalga oshirila boshlangan<sup>24</sup> deb ko‘rsatilsa-da, XI asrdayoq ki shi ismlari izohiga e’tibor qaratilganini ta’kidlash joiz. Jumladan, DLTda bir qator shaxs otlari izohi keltirilgan.

O‘zbek antroponimikasining taraqqiyot jarayonini kuzatish, o‘ziga xos jihatlarini yoritishda mumtoz manbalar tilidagi antroponimlarni tahlil qilish ahamiyatlidir. XIV-XVI asrlar yozma manbalaridagi antroponimlar, xususan, XV asr adabiy yodgorliklaridagi ismlar E.Begmatov, Sh.Yoqubovlar tomonidan o‘rganilgan. XV asr o‘zbek antroponimikasining leksik-semantik xususiyatlari N.Husanov ishlarida tadqiq etilgan.<sup>25</sup> Navoiy asarlari antroponimikasi alohida

<sup>23</sup> Begmatov E., Husanov N., Yoqubov Sh., Boqiyev B. O‘zbek tarixiy onomastikasining dolzarb muammolar // O‘zbek tili va adabiyoti.- 1992. -№ 5-6.-B. 21-27.

<sup>24</sup> Бегматов Э. Антропонимика языка. Автореф. дисс. ... канд. филол. наук..

<sup>25</sup> Husanov N. XV asr o‘zbek yozma yodgorliklari tilidagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. I kitob, -Toshkent: Yozuvchi, 1996.- 125 b.; II kitob,-Toshkent: Yozuvchi, 1997. -134 b; Husanov N.

tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan.<sup>26</sup> Shunga qaramay, o‘zbek tarixiy yodgorliklari tilidagi shaxs ismlarining leksik-semantik xususiyatlari umumiylarda maxsus tadqiq etilmagan. XV-XVI asr yozma yodgorliklari, xususan, “Mahbub ul -qulub” onomastikasi, antroponimikasi maxsus o‘rganilmagan. Zero, “Mahbub ul -qulub” XV-XVI asr ijtimoiy-siyosiy muhiti, O‘rta Osiyo, Afg‘oniston, Xuroson, Xirot onomastikasi aks etgan qimmatli manbadir.

“Mahbub ul -qulub”dagi antroponimlarning 90%i muallifga zamondosh shaxslar ismlaridir. “Mahbub ul -qulub” dagi antroponimlar quyidagicha tasniflandi.<sup>27</sup>

### **Antroponimlar genezisi jihatiga ko‘ra quyidagicha guruhlandi:**

Turkiy antroponimlar. “Mahbub ul -qulub” dagi turkiy antroponimlar leksik-semantik jihatdan quyidagicha ajratildi:

Forscha-tojikcha antroponimlar: Do‘st, Do‘st Yasin xayrJonak, Jonali, Jonibek atka, Jonboboxon Juha Sulton (Jon nisbasi bilan 6 ta ism berilgan). Forscha-tojikcha apellyativlardan shakllangan antroponimlar quyidagicha ajratildi:  
1. Allohga e’tiqodni bildiruvchi ismlar tarkibi quyidagicha: Xudoydod (forscha-tojikcha so‘z+ forscha-tojikcha so‘z); Karimdod, Haqdod Xalifadod (arabcha so‘z+forscha-tojikcha so‘z). 2. Shaxsning xarakter xususiyatini bildiruvchi so‘zlardan shakllangan antroponimlar: Binoiy, Behbudbek, Behub, Do‘st, Komron, Mehribon, Bahodurxon, Shodmon, Shoddibachcha. 3. Shaxsning nasl-nasabini bildiruvchi apellyativlardan shakllangan antroponimlar: Behzod, Xonzodabegim, Shahzoda. 4. Tana xusu-siyatini bildiruvchi so‘zlardan shakllangan ismlar: Gulbadanbegim, Xoldor. 5. Shaxsning yuz tuzilishini tavsiflovchi so‘zlardan shakllangan antroponimlar: Gulchehra, Gulrang, Farrux. 6. Shaxs faoliyati bilan bog‘liq so‘zlar asosidagi antroponimlar: Jahongir, Poyanda, Pahlavon, Pahlavon Badaxshiy (pahlavon nisbasi bilan kelgan ismlar 7ta). 7. Narsa-voqelik nomlaridan shakllangan antroponimlar: Mehrjon, Moh, Firuzshoh, Gavharshodbegim,

---

XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. Filol. fan. d-ri. ... Diss.- Toshkent, 2000.

<sup>26</sup> Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi. Filol. fan. nom. ... Diss.- Toshkent, 1994.

<sup>27</sup> Antroponimlarni tahlil qilishda E. Begmatov (1965), N. Husanov (2000) tasniflariga asoslanildi.

Shohrakbek. 8. Hayvon - parranda nomlaridan shakllangan antroponomilar: Sherbek, Sherxon Bulbul, Shahboz. 9. Shaxsning tug‘ilishi bilan bog‘liq ismlar: Gadoy, Darvesh, Bayram.

Xushkeldi, Do‘stkeldi, Do‘stbek, Xudoyberdibek kabi ismlar fors-tojik tilidan o‘zlashgan so‘zlar asosida turkiy til negizida shakllangan.

*Arabcha antroponomilar.* Arabcha antroponomilar leksik-semantik jihatdan quyidagicha tasniflandi: 1. Alloh va uning sifatlariga bog‘lab qo‘yilgan ismlar: a) bevosita Alloh so‘zi bilan kelgan antroponom: Abdulloh; b) Alloh sifatlari antroponom tarzida shakllangan: Ahmad, Mahmud, Rashid, Malik, Mahmud, Hamid (Homid); v) Alloh sifatlaridan shakllangan antroponomilar. Bu ismlar Alloh sifatlariga abd (arabcha) yoki qul (turkiycha) elementlarini qo‘shishdan hosil bo‘lgan. Ma’lumki, Allohnинг 99 sifati mavjud bo‘lib, “Asmoi husna” (go‘zal ismlar) deb yuritilgan. Arabcha antroponomilar orasida Alloh va uning sifatlariga bog‘lab qo‘yilgan ismlar ko‘p uchradi (Abdulloh, Abduvahhob, Abdurahmon). Bunday ismlar arab tiliga oid antroponimlarning 89%ini tashkil qiladi. 2. Payg‘ambarlar ismidan shakllangan antroponomilar: Muhammad, Yusuf, Sulaymon, Muso, Ibrohim, YA’qub. 3. Abu nisbasi bilan kelgan antroponomilar: Abu+baqo; +valid; +muhsin; +fath; +qosim; +hasan; +hoshim; +muslim; +sa‘id; +turob; +Yusuf; +hanifa; Abulbaqo, Abulqosim, Abu Muslim; Abu nisbali ismlar-17ta. 4. Ali nisbasi bilan hosil qilingan antroponomilar: Ali Asqar mirzo; Ali Do‘st; Ali Shukrbek; Ali Yusuf (jami: 25ta ism). 5. Nasl-nasabni bildiruvchi so‘zdan shakllangan antroponomilar: Mirzo, Sayyid. 6. Belgi bildiruvchi so‘zlardan shakllangan antroponomilar: Sodiq, Odil, Muborak, Muzaffar, Axiy, Ma’suma. 7. Narsa-hodisalar nomidan shakllangan antroponomilar: Sunbul, To‘fon, Suhayl.

## **2.2. Harakat-holat bildiruvchi semantik maydon**

“Mahbub ul -qulub”da eski o‘zbek tiliga xos harakat-holat bildiruvchi leksemalar qo‘llangan. Fe’l turkumiga oid leksemalarning turkiy tillarga xos semantik xususiyatlari aks etgan. E.R.Tenishev turkiy tillardagi 18ta harakat

fe’lining semantik xususiyatini izohlab, bu fe’llarni semantik xususiyatlariga ko‘ra to‘rtga ajratgan: 1.Harakat fe’llari. 2. Holat fe’llari. 3. His-tuyg‘u fe’llari. 4. Nutq fe’llari. Fe’llarning ushbu semantik guruhlarga mansub ko‘rinishlari “Boburnoma”da aks etgan. Fe’l leksemalar sodda (qayt-, yon-, ol-) va qo‘shma (raf’ qil-; man’ qil-; bo‘ldura ol-; org‘a sol-; ko‘makka yetish-), harakat tarzi (yeta kel-) shakllarida ishlatilgan.

“Mahbub ul -qulub”dagi harakat-holat bildiruvchi semantik maydon shaxs, narsa-buyum harakati va holatini aks ettiruvchi leksik birliklardan iborat. Harakat-holat bildiruvchi leksik birliklar quyidagicha guruhlandi:

- 1) harakat fe’llari: *tut-*, *qo ‘y-*, *qala-*, *otlan-*, *ber-*, *chop-*, *chirma-*;
- 2) holat fe’llari: *mulozamat qil-*, *taraqqiy qil-*, *rioyat qil-*, *taraddud qil-*;
- 3) tafakkur fe’llari: *ixtiro qil-*, *xayol qil-*, *mulohaza qil-*;
- 4) nutq fe’llari: *de-*, *arz qil-*, *ayt-*, *ta ’rif qil-*.

“Mahbub ul -qulub” matniga xos harakat-holat so‘zlaridan biri yukun-harakat leksemasidir. Yukun- “egilmoq, tiz cho‘kmoq”; “hurmat, ta’zim yuzasidan egilmoq” (NAL,712) ma’nolarida izohlangan. Bu fe’l qadimgi turkiy tilda “bukla” ma’nosini anglatgan yuk- fe’lining “buk” ma’nosidan o‘zlik nisbat yasovchi -un qo‘shimchasi bilan hosil qilingan (O‘TEL,183). “Mahbub ul -qulub””dagi “yukundim”, “qo‘pmoq”, “ta’zim qildi”, “burung‘idek=o‘q ta’zim qilib qo‘ptum”, “ko‘rushurda uch qatla yukunib..”, “..yigirma besh, yigirma olti qatla payopay yukundi”, “yurub ko‘rushib otlanildi” kabi so‘z, birikma, iboralarda shaxs fe’l - atvorining turli qirralari hamda davlat arbobining mavqeini belgilovchi nozik ma’no va mazmun yashirin. Turkiy yuk-, yukunch “ta’zim qilmoq”, “topinmoq”, “sajda qilmoq” so‘zining asosi yuka shaklida sug‘d tilida bitilgan eng qadimgi Bug‘ut yodnomasida uchraydi.<sup>28</sup>

*Yukun asosidan yasalgan jukunch so‘zi “sig‘inish”, ”ibodat” tushunchasini bildirgan: 1) “namoz” (qipchoq); 2) ”ibodat”; 3) “bosh egish” Yukun so‘zidan shakllangan ot “shu harakatni bajaruvchi shaxs” ma’nosini ifodalagan: XIV asrda yýkynchi “xalifa (o‘ribbosar), ya’ni odamlarga namoz*

---

<sup>28</sup> Ishoqov M., Sodiqov Q., Omonov Q. Mangu bitiglar.-Toshkent: TDSHI,2009.-B.12.

o‘qitadigan kishi” ma’nosida qo‘llangan.<sup>29</sup> Yukun- so‘zi qadimgi turkiy tilda, asosan, “ibodat chog‘idagi egilish” tushunchasini ifodalagan. Yukun- so‘zi asarda 30ga yaqin o‘rinda qo‘llangan, quyidagi ma’nolarda kelgan: a) “egilmoq” ma’nosida kelgan: ...yirag‘din yukunib, ta’zim qilib, mening oyog‘img‘a yiqildilar (175); b) “ta’zim qilmoq” ma’nosida: Jahongir Mirzog‘a va xon mirzog‘a dag‘i ushbu dastur bila yukundi (181). Yukun- so‘zining semantik tarkibida “ta’zim qilmoq” semasi yetakchi hisoblanadi. Ammo yukun-, ta’zim qilmoq leksik birliklari anglatgan ma’no aynan teng emas. Asarda ...yirag‘din yukunub, ... ta’zim qilib, mening oyog‘imga yiqildilar (175);...ta’zim va ehtiromlari jihatidin yukundim, alar ham yukundilar (301) kabi o‘rinlarda “yukunmoq”, “ta’zim qilmoq” so‘zlarining alohida-alohida keltirilishi ularning aynan teng tushunchani ifodalamasligini ko‘rsatadi. Yukunda faqatgina jismoniy egilish emas, “butun vujudi, borlig‘i bilan egilish” anglashiladi. Ta’zim qil=da, asosan, vujudning egilishi tushuniladi. Yukun fe’li ruhiy holat, harakat, insoniy ehtirom ifodasi hamdir: uydin kirgach, uch yukundim (89). “Bu so‘z shaxsning mansabi, jamiyatdagi mavqeい, kim kimga bo‘ysunishi va boshqa jihatlarni bildirgan. Quyi mavqedagi shaxs yuqori martabali kishiga yukungan. Yukunish miqdori esa yukunayotgan shaxsning nochor holati yoki muayyan g‘ururini bildirgan. Temuriylar saroyida bu qonunga aylangan tartib bo‘lgan.”<sup>30</sup>

Yukun- fe’lining orttirma nisbat shakli yukundur - “ta’zim qildirmoq”, “tiz cho‘ktirmoq”, bosh egdirmoq” ma’nolarini ifodalagan.).

Yukundur- “Mahbub ul -qulub” da quyidagi ma’nolarda kelgan: a) “tiz cho‘kdirmoq”, “egdirmoq”: Buyurdimkim, oyog‘ini tortib yukundurdilar; b) “ko‘ndirmoq”, “qarorga bo‘yin egdirmoq”, “tayinlamoq” ma’nosida qo‘llangan: Chun qonun va chag‘ona nolasi qulooqqa tushgay va mahvashi soqiy yukunub, may ayoqqa tushgay, ul vaqt zuhdu taqvog‘a ne e’tibor va xushu xiradg‘a ne ixtiyor. “kelishtirmoq”, “yarashtirmoq” semasini ham ifodalagan: O‘tgan yil Balx va

<sup>29</sup> Qarang: Tarjumon – XIV asr yozma obidasi.-Toshkent: Fan,1980. -B. 53.

<sup>30</sup>Qudratullayev H. Yukunish siyosati //Tafakkur.- 2004.-№ 3.-B. 83.

Astrobod Badiuzzamon mirzog‘a va Muzaffar mirzog‘a berib... yukundurub edilarkim, nechuk mazkur bo‘ldi

Bu o‘rinda “ko‘ngulni olmoq”, “tobe qilmoq” tushunchalari ham ifodalangan.

Sig‘in- so‘zi ham “egilmoq” tushunchasini bildirgan: Bir qashqa otliq kishi manga yaqin sig‘inib keldi Bu jumladagi egilish “ta’zim qilish” ma’nosida bo‘lmay, shunchaki hamla qilish uchun payt poylash tushunchasini ifodalagan. Quyidagi jumlada esa “yaqinlashmoq” tushunchasini anglatgan: ...kecha erta yavuq sig‘inib qapug‘a kelgan ishni taqsir qilmag‘aybiz Sig‘in= hozirgi o‘zbek adabiy tilida diniy atama sifatida qayd etilgan bo‘lib, “xudoga, aziz-avliyolarga qulluq qilmoq, ibodat qilmoq, topinmoq va ko‘chma ma’noda biror kimsaga yoki narsaga e’tiqod qilmoq” tushunchalarini ifodalaydi (O‘TIL,II,59). “Egilmoq” semasi iste’moldan chiqqan.

*Bukil - ta’zim qil - qulluq qil - yukun - tiz cho‘k- sig‘in so‘zlar “egilish”ning turli daraja-ko‘rinishlarini ifodalagan. Darajalanish tushunchani farqlab ko‘rsatar ekan, uni ayni bir tushunchaning ifodalanishi, “darajalanish qatorining bosh so‘zi ma’nodoshlik qatorining bosh so‘zi singari nutqda o‘z qatori a’zolarining o‘rnini bosa oladi”, tarzida baholash bir oz mulohaza tug‘diradi. Shu bilan bir qatorda, graduonimiyani ma’nodoshlikning bir turi deb baholash nisbiy.<sup>31</sup>*

“Mahbub ul -qulub” da qo‘llangan so‘zlar gradatsiyasi ta’sirchanlikni oshirish, tushunchani yorqin ifodalashga xizmat qilgan.

Asarda harakat-holat bildiruvchi qo‘sh-, ber-, tur-, kel-, berkit-, yon-, chiq-, izhor qil-, tush-, ayril-, sol-, buyur-, so‘r-, tort-, ko‘ch-, o‘t-, bos-, kengash-, ... kabi jami so‘zlar qo‘llangan qo‘llangan.

---

<sup>31</sup> Ne’matov H.,Rasulov R. O‘zbek tili sistem leksikologiyasi asoslari.-T.: O‘qituvchi, 1995, 109-b.

## **2.3. Belgi-xususiyat bildiruvchi semantik maydon**

Belgi-xususiyat bildiruvchi semantik maydon rang bildiruvchi, shaxs fe'l-atvorini bildiruvchi va shu kabi bir qator semantik guruhlardan iborat. Asarda rang bildiruvchi qora, oq, qizil so'zлari o'ziga xos ma'nolarda qo'llangan. M., qora qadimgi turkiy tilda "belgi" (rang) tushunchasini ifodalagan. Ko'chma ma'nolarda kelib 1) "baxti qora", "g'amgin"; 2) "og'ir"; 3) "yomon"; 4) "ahmoq"; 5) "odatiy", "oddiy", "past navli", "qo'pol"; 6) "iflos"; 7) "siyoh", "rang" (DTS,422) ma'nolarini anglatgan. Qara "olomon", "to'da" ma'nosida ham qayd etilgan (DTS,423). Qora so'zining semantik xususiyatlari, qadimgi turkiy tilda va keyingi davr obidalarida ifodalagan ma'nolari tahlil qilingan. *Qora va shu asosdan shakllangan so'zlar "Mahbub ul -qulub" da quyidagi ma'nolarda kelgan:*

1) *rang, belgini bildirgan: ..Muhammad Ali jang-jangg'a xossa qora mahmadlik boshliq, qalmoqi jiba berib, tug' ham inoyat bo'ldi* (298); 2) *o'ljaga olingan hayvonlarni bildirgan ( qiyos: qora mol)..cherik eli raxt va gala qora o'lya kelturdilar* (210); *..bir pora gala qoralarni va uylaridin qalin oshliqlarini kelturdilar* (286); 3) *"askarlar to'dasi" ma'nosida kelgan: Tanbalning qorasi Navkand soridin paydo bo'ldi* (129); ...*afg'onning qorasini ko'rub chopqun qo'yuldi* (267); 4) *antropoim sifatida kelgan: So'zangaron darvozasi Qora barlosning buljori edi* (147). *Qoraning antropoim tarkibida kelishi qadimgi turkiy til davrida ham kuzatiladi* (DTS,424). 5) *"kaltaklamoq" ma'nosini ifodalagan frazema tarkibida kelgan: Axsining bir pora lavand va avboshni barin qilib, qoratayoq qilib..*(120); 6) *"qo'lga tushmoq", "asir bo'lmoq" ma'nosidagi qaro oldur- frazemasi tarkibida kelgan: ... vale hech kishi qora oldurmey, solim va salomat chiqtilar* (235). *Bu o'rinda qora gavda, vujud, aniqlik ma'nosini ifodalagan.*

"Mahbub ul -qulub" dagi belgi bildiruvchi leksik birliklarning asosiy qismi xususiyat bildiruvchi so'zlardan iborat: qotqon "qatqaloq": Qotqon bo'lub edi, yo'ldin chiqqon kishi tashvish bila yurur edi (261).

Belgi-xususiyat bildiruvchi havoliq, xushhavoliq, qishki hukmi, suvlar kichik, quttout-tariq, benamoz, novahm, kofirvash, hamvor, purmashaqqat, mutabarrak, sayfiy, qalamiy, xushbosh, xushmaosh, ayyom, xushtab’, namozguzar, turk, sodiq, yayloq; hamvor-hamvor, dahi-dardah kabi leksemalar faol qo‘llangan.

-lik / liq sifat yasovchisi grammatik jihatdan hozirgi –li affiksiga teng keladigan leksemalar hosil qilishda ishtirok etgan: mevalik kentlardur (193), qorliq tog‘(194), safoliqqina (194); darichaliq (186). Sabzaliq “yashil rang”ni bildirgan: O‘langlar sabzaliq mahalida...(186).

Oq, qizil, qora, shirin, uzun, inchka, yupqa, yovuq, sovuq, mahfuz, mastur, xarob, sozvor, tund, xushrang, tor, muxotara, feasbob, beyaroq, fosid, fosiq, laziz kabi leksemalar narsa-hodisaning belgisini bildirgan.

Burun, xili, holo, payopay,, aksar, andin beri, yovuq, tonglasi, tong otguncha, yiroq, bot, paydorpay, dag‘i, quyi, yuqqori, kam, bir kunda, qatla, bir oychiliq kabi birliklar harakat-holatning belgisini bildirib kelgan.

## **2.4. Qabila, elat nomini bildiruvchi semantik maydon**

“Mahbub ul -qulub” leksikasi XV-XVI asrlarda mavjud bo‘lgan urug‘, qabila, elat tushunchalarini aks ettirishi bilan ham alohida qiymatga ega. Asarda turkiy qabila va elatlar, afg‘on xalqi urug‘-qabilalarini ifodalovchi ellikdan ortiq termin qayd etilgan. Qabila urug‘ nomlari etnik termin, nisba, taxallus sifatida ham qo‘llangan.

Onomastika - kishi ismidan tortib ilohiy nomlargacha, xalq nomidan tortib aholi punkti yoki kosmik obyekt nomigacha etnografik xarakterga ega.“Mahbub ul -qulub” dagi nomlarning ma’lum qismi etnonimlar bilan bog‘liq.

“Mahbub ul -qulub” da qadimgi turkiy til davriga xos bo‘lgan, eski o‘zbek tilida ham faol qo‘llangan etnonimlar aks etgan. Mazkur terminlar lug‘aviy birlik sifatida denotativ va semantik taraqqiyot natijasidagi konnotativ ma’nolarda namoyon bo‘lgan. Jumladan, turk so‘zi asarda o‘ziga xos milliy, tarixiy, emotsiyal-ekspresiv funksiyalarni bajaruvchi atama sifatida qayd etilgan.

Qadimgi turkiy manbalarda omonim sifatida trk I. “kuchli, qudratli”; ”samiy obilniy, predelniy” (DLT,I,353); trk II “qabilalarning etnik uyushmasi” ma’nolarida keltirilgan . Mazkur so‘zlarning polisemiya negizida shakllangan.

Turk manbalarda “xalq”; majoziy “sho‘x”, “go‘zal”, “o‘ynoqi” “sevgili” (NAL,617) ma’nolarini ifodalagan. Turk termini XV asrda keng doirada turkman, ozarbayjon, usmonli turk xalqlariga nisbatan ham qo‘llangan. Qayd etilgan ma’nolardan tashqari, so‘zning boshqa semantik funksiyalarni ham bajarishi ta’kidlangan. Jumladan, A.Quronbekov turk so‘zining Hofiz g‘azallaridagi quyidagi ma’nolarini qayd etadi: 1)”turkiy el” 2) “turkiy til”; 3) “turkiy yurt”; 4) “go‘zal yor”; 5) “ma’shuq”; 6) “tarixiy shaxs”; 7) “xumor ko‘z”; 8)” talonchi, ayovsiz shaxs”; 9) tasavvufiy ma’noda: “haq taolo”; 10) ”do‘st”.

“Mahbub ul -qulub” da turk so‘zining quyidagi ma’nolari kuzatiladi: 1) xalq nomini bildirgan (so‘zning bosh ma’nosи): ..muning zarari turkka va mo‘g‘ulg‘a musovidur (159); 2) shaxs mansub bo‘lgan millat, elatni bildirgan: ..turk va hind umarolarini chorlatib, chashn berduk (457); 3) “sodda” ma’nosini ifodalagan: Ahmadbek turk kishi edi, vale mardona va davlatxoh edi (149). “E “Jasur” ma’nosidagi mardona, “oqko‘ngil” ma’nosidagi davlatxoh turk terminiga yaqin tushunchani anglatgan; 4) “samimi” ma’nosida kelgan: Musulmon va namozguzar va turk va sodiq kishi edi .

Turk so‘zidan shakllangan yasama so‘zlar ham faol qo‘llangan. Jumladan, turkluk so‘zi “saxiy, qo‘li ochiq” ma’nosini bildirgan: Bovujudi turkluk paydo kunanda edi. Nechukkim, paydo qilur edi, yaxshi ham xarj (sarfi-X.Z.) qilur edi (84). –i sifat yasovchisi orqali shakllangan turki “turkcha, turkiy” ma’nolarida qo‘llangan: ...turki lafzda mujarradni ham bo‘y derlar -iy sifat yasovchisi orqali shakllangan turkiy “donishmand(lar)” ma’nosida kelgan: Turkiy dedilarkim, shayx maslahat berdi (139). Bu semaning shakllanishi “turkiy xalq”, “elat” ma’nosining kengayishidan yuzaga kelgan. “Turk xalqiga mansub donishmand(lar)” tushunchasi keyinchalik shu xalq nomini bildiruvchi so‘z ma’nosidagi sifatlovchi vazifasida kelishini ta’milagan, “dono”, “donishmand” ma’nolarini anglatgan.

Eski o‘zbek adabiy tili davrida qo‘sishin askarlar mansub bo‘lgan qabilaurug‘ nomiga asoslanib guruhlarga ajratilgani ma’lum: aymoq – Sayid Yusufbek o‘qloqchi ham aymoqlar bila keldi (183). Aymaq “xalq”; “mamlakat”; “hudud”; “sinf”, “qabila” ma’nolarida qayd etilgan.

Asardagi qabila va urug‘ nomlari genetik asosiga ko‘ra ikki xil:

a) turkiy etnonimlar: qipchoq, arlot, arg‘un, turkman, mang‘it, qarluq, bo‘g‘a, afshar, oqqo‘yluq, qoraqo‘yluq, chig‘atoy, qipchoq, barlos, arlot, o‘zbek, jaloyir, qavchin.

b) turkiy bo‘lmagan etnonimlar: ajam, arab, afg‘on, dilazok, janjo‘ha, jud, nakdariy, jatgujur, chorshanbihiy, ulus nuhoniy, fors, tojik, hindu, bangoliy, baluj, lo‘li sifatida ajratildi.

Qabila-elat tushunchasini ifodalagan: afg‘on, mo‘g‘ul, turk, turkman, uyg‘ur, xitoyi, cherkasi(cherkas), o‘zbek, qozoq, hindu, tojik, tatar terminlari kishilik taraqqiyotining keyingi davrlariga xosdir.

Ba’zi o‘rinda xalq nomi joy nomi bilan qo‘sib aytilgan: joy nomi + el(i): Bajavr eli, Balx eli, Bangla eli, Boron eli, Hiri eli, Hinduston eli; joy nomi+ ahl(i): Xuroson ahli;, joy nomi+ ulus: Yusuf zayı ulus. Bular orasida joy nomi + el (i) ko‘rinishidagi nomlar nisbatan ko‘p qo‘llangan.

## 2.5. Kasb-hunar tushunchasini bildiruvchi semantik guruhi

Kasb-hunar leksikasi xalq tarixiy taraqqiyoti bilan bog‘liq. Bu jihat tadqiqotlarda atroflicha yoritilgan. Jumladan, o‘tmishdan tortib hozirga qadar o‘zbek hunarmandlari orasida qo‘llanib kelayotgan professional so‘zlar xalq turmush tarzi, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyoti negizida tahlil qilingan.

“Mahbub ul -qulub” dagi kasb-hunar ma’nosini ifodalovchi terminlar quyidagicha ajratildi.

1) shaxs faoliyatini ifodalovchi kasb-hunar terminlari:

a) oziq-ovqat bilan ta’minlovchi shaxs tushunchasini ifodalovchi terminlar: *sharbatchi*; saqo “suv tashuvchi”; b) sovut, urush kiyimini tayyorlovchi shaxs

tushunchasini ifodalovchi terminlar: *jibachi*, *jebagar* “jiba (sovut, temir kiyim) ishlovchi”. *Jebagar* Navoiyda turkiy shaxs oti yasovchi qo’shimcha bilan jibachi shaklida qo’llanib, “xon saroyidagi mansablardan biri, *jevachi*“; “*yarog‘-aslaha omborining boshlig‘i*“; “*jiba yasovchi*“ ma’nolarida ishlatilgan (NAL,224). X.Nazarova lug‘atida “qurol ishlovchi” ma’nosida keltirilgan. Ba’zi manbalarda jibachi faqat “jiba,sovut yasovchi” ma’nosida qayd etilgan (ANATIL,I,573). XIV asr manbalarida “sovut” yariq, “sovut yasovchi” yariqchi terminlari bilan yuritilgan; bo‘rkchi “bo‘rk tikuvchi” (57); jomabof ”to‘nbop mato to‘quvchi” (NAL,231); joma “to‘n, kiyim” (NAL,230); polondo‘z “polon (to‘qim) to‘quvchi”; polon “egar”; v) binokorlik bilan shug‘ullanuvchi shaxs ma’nosini ifodalovchi terminlar: sangtarosh, ko‘hbur “tosh kesuvchi, toshtarosh”; muzahhib “zarhal qiluvchi usta” (NAL,408); tarroh “naqsh soluvchi, naqqosh, binolarni bezovchi” hirfagar “chodir tikuvchi”. Navoiy asarlarida “binokor” ma’nosida ham qo‘llangan (NAL,597); g) turli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxs tushunchasini ifodalovchi terminlar: a. sallox “mol so‘yuvchi, qassob“; ustod “usta“); korgar “ishchi“, “mutaxassis”; savdogar, axtachi.

2) shaxs faoliyati mahsulini ifodalovchi so‘zlar. Shaxs faoliyati mahsulini ifodalovchi so‘zlarning asosini maishiy ma’nolarni ifodalovchi semantik guruh tashkil etadi. Maishiy ma’nolarni ifodalovchi semantik guruh quyidagicha: a) uy-ro‘zg‘or buyumlari nomlari: dalv “Quduqdan suv olinadigan charm idish, qovg‘a” (NAL,175); yog‘liq “ro‘mol, parda”; zaylucha “sholcha, gilamcha” (NAL,241); tulum “ichkilik solinadigan charm idish“; xik “suyuqliklarni solish uchun teridan tikilgan idish”; b) inshoot, turar joy nomlari: sarocha “kichkina saroy, kichik hovli, qush qamaydigan qafas”; Navoiyda: saro – Yer (pastqamroq qismi); ”go‘r, qabr”; saroy, saro- ”uy, xona, turar joy”; “oliy bino, qasr” (NAL,550). Asarda uyning bir necha turlarini ifodalovchi leksik birliklar qo‘llanagan: ko‘shk, oq uy, qora uy, dardara uy. “Aholi, xalq yashaydigan boshpana umumxalq tilida “qora uy” (chunki ular aksar qora kigiz bilan berkitilgan) deb atalgan. O‘tov og‘asining, oqsoqolning, boyning uyi boshqalardan oq o‘tovligi bilan farqlangan: Badiuzzamon mirzoning oq uylari.. Shuningdek, to‘y paytlari maxsus oq o‘tovlar tikilgan”. Bayramlarda,

iydlarda ham oq uy tikilgan: Ul sufa ustida oq uy tikib, anda iyd qilildi (400). Oq uylar katta va kichikligi bilan ham farqlangan: Ulug‘ oq uyda ham ichildi; ...kichikroq oqqina uy tikilib edi, gohi anda o‘lturur edim,... Asarda uyning boshqa ko‘rinishlarini ifodalovchi so‘zlar ham qo‘llangan: dardara uy “oraliq uy”: Xon bog‘ning o‘rtasida solg‘an dardara uyda o‘lturub edilar; chordara “to‘rt eshikli uy”; “shimol va janub tomonida ikkitadan eshikli”: Ustida bir chordara qo‘parg‘ay. Chordara X.Nazarova lug‘atida “bog‘ o‘rtasida ikki tomondan darchalar qo‘yib solingan bino” ma’nosida izohlangan; yakpora uy “yaxlit, bir butun”: ...yakpora uy tarosh qilib bo‘lur, xud yakpora qilsunlar;tiyul “chodir”: Kechasi Qutluq xojaning tiyulida bo‘lub; olachuq-chodir-xirgoh-xayma so‘zleri “chodir” ma’nosini anglatgan: olacho‘q terminida “odmilik (oddiylik)” semasi, chodirda “serhashamlik” semasi aks etgan: Mening chodirim voldamg‘a tikilur edi. Manga har yurtta olacho‘q yasar edilar, olacho‘qda o‘lturur edim; xirgoh nisbatan yupqaroq “chodir” ma’nosini ifodalagan (NAL,655): ...xirgohni peshxona bila-o‘q mening boshimg‘a yiqti; Xirgoh tunlugi reza-reza bo‘ldi (446); Xirgohga ma’no jihatdan yaqin bo‘lgan borgoh ham turar joy tushunchasini anglatgan.

Asarda qo‘llangan qishloq termini hozirdagidan farqli o‘laroq, asl lug‘aviy ma’nosida kelgan, ya’ni “qishlaydigan uy, makon” tushunchasini anglatgan: bir qo‘rg‘onda qishloq solmoq kerak... Necha kun qishloqi uylar tayyor bo‘lg‘uncha o‘langda o‘lturuldi (103). Qadimgi turkiy tilda: qpshlag‘- “qishlanadigan joy” ma’nosini bildirgan (DLT,III,432). Qishloq qish otidan -la qo‘shimchasini qo‘shib yasalgan qishla- fe’liga -g‘ qo‘shimchasini qo‘shishdan hosil bo‘lgan; “aholisi yozda dalalarga ketib, qishda qaytib kelib yashaydigan joy” ma’nosini anglatgan (O‘TEL,555). So‘zning shakllanishi aholi yashash obyekti bilan bog‘liq.<sup>32</sup> Hozirda “aholisi asosan xo‘jalik bilan shug‘ullanadigan yashash joyi”ni bildiradi (O‘TIL,II,589). Qishloq so‘zining “qishlaydigan uy” ma’nosida qo‘llanishi terminning eski o‘zbek adabiy tili davrida narsa-obyekt nomidan ma’muriy hududiy terminga aylanish jarayoni haqida tasavvur beradi.

---

<sup>32</sup> To‘ychiboyev B. Yaylov, qishlov, keraga va oltin so‘zlarining shakllanishi //O‘zbek tili va adabiyoti - 2000.-№3. -B.67

Asarda turli sohaga oid kasb-hunar so‘zлari qayd etilgan. Ular quyidagilar:

3) dehqonchilikka oid terminlar: kalandiy “ketmonchi” (BAL,59), kaland “ketmon” ; koranda “ekin ekuvchi”; XIV asr yozma obidalarida forscha-tojikcha koranda o‘rnida turkiy əkinchi so‘zi ishlatilgan.<sup>33</sup> Bu so‘z XV-XVI asrlarga kelib iste’moldan chiqan, uning o‘rning fors-tojik tilidan o‘zlashgan sinonimi ishlatila boshlagan; koriz 1) “yer tagidan o‘tkazilgan suv yo‘li”; 2) “ariq” (NAL,317); mazraa “ekin ekiladigan yer, ekinzor” (BAL,69); mahrusa “ekin ekiladigan yer”:...bu viloyat ham doxili mamoliki mahrusa bo‘ldi... . Horis “ekin ekuvchi, dehqon” (ANATIL,IV,193); ziroat ekinlari nomlari: jav, xavid;

4) ovchilikka oid terminlar: jarga, charge “doira, halqa, o‘rov; charge solmoq to‘qay atrofini qurshab, ba’zan o‘t yoqib ichidan hayvon, qushlarni chiqarib ovlamoq” : Cherik Bigrom olidag‘i Siyoh obdin o‘tub, suv quyi boqa charge solduk. Navoiy asarlarida: jarga (charge) “aylana, doira, saf, qator, o‘rab olish” (ovda); “askar, qo’shin”; “martaba” (NAL,221); ma’nolarida qayd etilgan. Jax “baliq tutish uchun tol novdasidan to‘qilgan ov asbobi” (BAL,43) qushchi, baliqchi(lik); milvoh “boshqa qushlar kelsin deb, tuzoqqa bog‘lab qo‘yilgan qush”;

5) kemachilikka oid terminlar: javkand “kemalardagi ayrim hujra” (BAL,41); jola “sol” (BAL,45); zavraq “qayiq”. Bobur to‘rt yuz yigirma kema haqida ma’lumot bergen. To‘rtta yirik kemani nomlagan: “Osoyish”, “Oroyish”, “Gunjoyish”, “Farmoyish”. Bu nomlar fors –tojik tili zamirida bo‘lib, oso-, oro-, gunjo-, farmo- (fe’l) asoslariga -(y)ish - harakat nomi affaksi qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. Bobur bulardan birining nomlanish sababini qayd etgan: Ushbu yil cherik otlanurdin burunroq Oroyishxon bir kema yasatib, peshkash qildi. Bu kemaga “Oroyish” ot qo‘yuldi (438). Bu o‘rinda kishi ismining narsa-buyum nomiga aylanishi kuzatiladi. Ism apellyativ leksikadan shakllangan.<sup>34</sup>

6) zargarlik bilan bog‘liq semantik guruh: a) qimmatbaho toshlar nomini bildiruvchi so‘zlar: kimsän “do‘ppi va quloqlarga taqiladigan yupqa va girdak oltin kulchalari”; sarrof “qimmatbaho toshlarni baholovchi, zarshunos”; “pul

<sup>33</sup> Qarang: Tarjumon - XIV asr yozma obidasi.-Toshkent: Fan, 1980.-B.54.

<sup>34</sup> Nafasov T. Bobur nomshunos //Bobur va o‘zbek milliy madaniyati taraqqiyotining ayrim masalalari. – Andijon, 1993. –B.42.

maydalovchi” ; mavkil, lojuvard - tosh nomlari; b) qimmatbaho ma’dan tushunchalarini ifodalovchi so‘zlar:qo‘rg‘oshin, kumush. Ma’dan nomlarining keltirilishida metonimiya asosidagi ma’no ko‘chishi kuzatiladi: qizil “oltin”; oq “kumush”; Qizil va ojni bu zaylucha ustiga to‘kdilar (424); Raxt va oq parcha va badralarni ham qizil va oqning yonida to‘da qildilar (424). Badra “tanga” ma’nosini bildirgan. Ba’zi manbalarda “tanga solingan kissa” ma’nosida ham qayd etilgan.

## **2.6. Oziq-ovqat tushunchasini ifodalovchi semantik guruh**

Oziq-ovqat tushunchasini ifodalovchi semantik guruhni quyidagicha tasniflandi:

a) “oziq-ovqat” tushunchasini umumlashtirib ifodalovchi so‘zlar: oshliq, maunot. Oshliq “g‘alla, don” tushunchasini ifodalaydi. Aeliq (oshliq) “oziq”, “ovqat”, “taom” tushunchasidagi äsh asosidan shakllangan; ashliq “yeyish uchun mo‘ljallangan mahsulot” . Qadimgi turkiy tilda ashliq “oshxona”; “don”, “non” tushunchalarini ifodalash uchun qo‘llangan ; “osh tayyorlovchi yoki oshpaz” aechi ; “bosh oshpaz”; oshxona ishchisi “ofitsiant” terminlari bilan yuritilgan. Shaxs otini ifodalovchi bu terminlar ham ash asosidan shakllangan; aë asosidan shakllangan suv (“yegulik va suv”), tatiy (yegulik), (“tariq”) so‘zleri qo‘llangan; ash, suv, tatiy birliklari, oshliq so‘ziga ma’nodosh bo‘lgan, qadimgi turkiy tilga xos *AZUQLUQ* so‘zi “Mahbub ul-qulub”da uchramadi. Bu so‘zlar eski o‘zbek adabiy tili davriga kelib iste’moldan chiqqan va arxaizmga aylangan.

*Oshliq* asarda a) o‘z lug‘aviy (“g‘alla, don”) ma’nosida kelgan: oshliq emdi pishgan chog‘ edi (148); b) “hosil” tushunchasini anglatgan: ...so‘zni munga quyuldikim, yil oxir bo‘lubtur, hutg‘a bir-ikki kun qolibdur, tuzdag‘i oshliqni tamom ko‘taribturlar (287); v) “oziq-ovqat” tushunchasini ifodalagan: Cherikiga hech tarafdin oshliq kelmadni, ochliqtin batang kela yovushub edilarkim,..(115).

“Mahbub ul -qulub”da oshliq, ya’ni oziq-ovqat keltiruvchi shaxslar guruhi oshliqchi termini bilan yuritilgan. Oshliqchi so‘zining semantik strukturasida

o‘zgarish sodir bo‘lib, sema doirasi kengaygan. Ashliqchi “o‘lja oluvchi guruh” ma’nosini kasb etgan: Vale har kunda bizning oshliqchi va alarning oshliqchisi otqulashurlar edi (126).

Oshliq so‘zi to‘luk bilan birga qo‘llangan: Chun qish yavuqlashib edi, yozida oshliq-to‘luk qolmaydur edi (128). Qadimgi turkiy tilda keng qo‘llangan “kuch”, “qudrat” ma’nosidagi tolük “Mahbub ul -qulub”da “oziq” tushunchasini ifodalagan. To‘luk to‘l- asosidan -ik umumlashtiruvchi ot yasovchi qo‘srimcha orqali singarmonizm talabiga muvofiq shakllangan.

Oshliq so‘zining sinonimi – fors-tojikcha g‘alla ishlatilgan: ul g‘allavu muhmalki deb erding, berdim, Muhmalg‘a bo‘yu g‘alladin uy to‘lg‘usidur (143).

Maunot so‘zi ham “oziq-ovqat” tushunchasini umumlashtirib, “tiriklik uchun kerakli narsalar”; “oziq-ovqat” ma’nolarini ifodalagan (NAL,373): Yana bir rasm budurkim, xizona va poygoh va mulk salotinining jami maunoti - qadimdin muqarrar va muayyan tanlari pargana bordurkim, o‘zga yerga aslo xarj bo‘lmas (342);

b) ichimliklar nomi: sabuhiy ”tong paytidagi ichkilik” (NAL,537); shurb “ichish, ichkilik” ; shira “dasturxon”; ”may ko‘zasini mahkamlaydigan shira”; “sharbat” ma’nolarida kelgan . “Mahbub ul -qulub” da shiraning metonimiya asosida shakllangan “may idishlari qo‘yilgan xontaxta” ma’nosi ifodalangan (NAL,697): Osh tortaturg‘an yerda shira qo‘yub, oltin va kumush surohilarni shira ustiga terdilar (250);

v) taom nomlari: yumdon oshi “yumshoq qilib pishirilgan, dori o‘rnida iste’mol qilinadigan osh”: Bir oyog‘ yumdon oshi kelturdi, ichtim (174). Shilon/shulon “umumiyl ovqat, podshoh ziyofati” (NAL, 696); “hukmdor-lar o‘rtasida va xonaqohda ko‘pchilikka beriladigan osh, umumiyl ziyofat”: Shiloni va saxovati yaxshi edi (84).

g) yegulik nomlari: yumurtqa “tuxum”: ...har qushdin behaddu hasr, bu suv yoqasida qalin qushning yumurtqasi (211); kamoli” bir xil kayf beruvchi shirinlik “: Shoh Yusuf zay bir necha xushxo‘r va kayfiyatlik kamoli kelturub edi (285).

## **2.7. “Mahbub ul -qulub” leksikasining shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra tasnifi**

“Mahbub ul -qulub”da omonimlar, sinonimik paradigma, antonimlardan maqsadga muvofiq foydalanilgan.

Omonimlar. “Mahbub ul -qulub” dagi omonimlarni turkum jihatdan quyidagicha ajratish mumkin.

1. Bir turkumga mansub so‘zlar o‘rtasidagi omonimlik: a) omonimlik ot turkumiga mansub so‘zlar orasida kuzatiladi: ot I; ot II: burj I “qadimgi astronomiyada quyoshning yillik harakat doirasidagi o‘n ikki nuqtaning har biri” : ... oftob qavs burjida edi (321); burj II “qal’a devorining tirkaklari, qal’aning cho‘qqisi”. Namoz xufton burj uchti (93); tosh I “to‘p, zarbzan o‘qi, quroli” ...tosh tayyor bo‘lubtur, ne farmon bo‘lur? Farmon bo‘ldikim, bu toshni otsun, yana men borg‘uncha yana bir toshni tayyor qilsun (442); tosh II “jism”: Imorat kursisini tamom toshdin farsh qilibturlar (106); tosh III “ichimlik, chog‘ir navi”: Ikki nav’ chog‘ir bo‘lur: arra toshi va suhan toshi derlar (191). Bu o‘rinda tosh arra toshi va suhan toshi qo‘shma so‘zlarining tarkibiy qismidir; ko‘hpoya I “ulug“: ...ikki ko‘hpoyadur, Sayid Yusuf majam aning ulug‘i edi... (130); ko‘hpoya II “ma’muriy - hududiy birlik”: Isfara viloyati to‘rt bo‘luk ko‘hpoyadur (61); ko‘hpoya III geografik hudud, “predgorye; podnojiye, podoshva gori ”: Yana bir Isfaradur, ko‘hpoyada voqi’ bo‘lubtur (61); boshliq I “bosh kiyimi” ; boshliq II “guruh yetakchisi”; naqsh I “kuy, ashula (NAL,457): ..ul jumladin bir naqshi bor, nuhranga mavsum (242); naqsh II “buyum va binolardagi naqsh”;

b) omonimlik fe’l turkumiga mansub so‘zlar orasida kuzatiladi: fe’l I; fe’l II.Riroyat qilmoq I “ri’oyat”- a. “rioya, e’tiborga olish“ so‘zidan, “hurmatlamoq” ma’nosida kelgan (NAL,527): Otam Umarshayx mirzo riroyat qilib edi va hanuz riroyat qilmoqta edi (111). Riroyat qilmoq II “amal qilmoq”: Naqohat ayyomini obdon riroyat qila olmadim, uzuldum (111).

2. Turli turkum so‘zlari o‘rtasidagi omonimlik: *ot I; ot II; ravish III: pul I “ko‘prik”*: Qo‘rg‘ong‘a yetib, shotu qo‘yub chiqib darvozani olib, puli ravon

solilib,..(167); pul II “vaqt birligi”: Yana har girini oltmis bo‘lubturlar, har birini pul debturlarkim, bir kecha-kunduz uch ming olti yuz pul bo‘lg‘ay (448); pul III “bir to‘da,bir talay, allaqancha”: ...pul tir yig‘ilib turubtur, o‘bdon-o‘bdon yigitlardek..(259);

ot I; ravish II: ariq “soliq turi”...Nazar bahodur otliq navkarini Balxning ariqlarini yiqqoli yibordi (115/65, II); ariq ”oson” : ...bir zamonda daryodag‘ilarni ariq olib, borini qirdilar (121,168,II); ariq ol- “oson egallamoq“;

“Mahbub ul -qulub”dagi omonimlar genetik xususiyatiga ko‘ra quyidagicha:

1. Omonimlik bir tilga mansub so‘zlar o‘rtasida sodir bo‘lgan: 1) turkiy so‘z I; turkiy so‘z II; turkiy so‘z III: to‘ra I “qoida, qonun, intizom, odat” (ANATIL, III,270): hazm va ehtiyyotni mar’iy tutub, to‘ra va siyoqkim, tartib qilib edi; to‘ra II odam bo‘yi baravar keladigan qalqon (ANATIL, III,269): Tufakandozlar bu aroba va to‘ralarning keynida turub, tufak otqaylar (334/192,I); to‘ra III “qism, a’zo”: ...Husayn olilg‘onda qisqaliq qilg‘anlarning kayfiyatini ko‘rub, to‘ra-muchalaridin hurattuk (306).

*Ish* I “shaxsning muayyan faoliyati” Ish ham qila olmadi (87/50,I); *ish* II “kuy”: Bir navbat Badiuzzamon mirzoning suhbatida bir ishni naydin xo‘b chiqarur, Qul Muhammad g‘ijjakta ul ishni chiqara olmas (245/140,I). “Mashg‘ulot” ma’nosidagi ish va “kuy” ma’nosidagi ish polisemantik so‘zlar o‘rtasidagi semantik bog‘liqlikning yo‘qolishi natijasida shakllangan omonimlar hisoblanadi.

2.Omonimlik turli tilga oid so‘zlar o‘rtasida sodir bo‘lgan: arabcha so‘z I; hindcha so‘z II: roy I. “fikr, qarash”: Mirzo royi bila amal qilmas edi (232); roy II “Hind podshohlari unvoni “ (BAL,119): Agarchi kichik-kirim roy va roja tog‘ va jangalda xeli bar edilar, vale mu’tabar va mustaqil bular edilar (340).

“Mahbub ul -qulub”da qo‘llangan omonimlarning hozirgi o‘zbek tiliga munosabatida quyidagilar ma’lum bo‘ldi.

1. Omonim hisoblangan har ikkita (uch) so‘z hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadi. Qalin I “yonlama hajm”; qalin II “nikoh to‘yida qiz uchun kuyov tomonidan beriladigan mol, pul” ma’nosini ifodalaydi. Qalin kelinga beriladigan

sep, mahrni anglatgan. Qalin II dan yasalgan qalinliq “Mahbub ul -qulub”da “unashilgan qiz” tushunchasini ifodalagan: Sulton Ahmad mirzoning Oysha Sultonbegim otliq qizinikim, ota, obag‘a tirik ekanda manga qalinliq qilib edilar (131). Qalinliq // qalindik fonetik o‘zgarish natijasida qalliq ko‘rinishiga kelib qolgan: qalin-qaliq-qalinliq-qalliq-qalliq (O‘TEL,517); “nikohlamoq” ma’nosidagi qo‘l- so‘zining asosi ham qalinga bog‘lanadi: ...burun Jahongir mirzog‘a mirzolar tirigida qo‘lub edilar (178).

2. Asar leksikasidagi omonimlarning faqat biri hozirgi o‘zbek adabiy tilida saqlanib qolgan. M., yon I. yan 1. “qaytmoq” (DTS,231): Biz yong‘andin so‘ng xon kishisi O‘ratepa ustiga yurudi (32). Yondur- “qaytarmoq”: barchasini egalariga yondura berdilar (39). Bu ma’nodagi yon- fe’li hozirda ishlatilmaydi. “O‘t olmoq; o‘tda kuymoq” ma’nosidagi yonmoq II hozirda qo‘llanadi (O‘TIL,I,259). Bir so‘zning turli ma’nolari sifatida kelgan tort= so‘zi keyingi davrlarda omonimga aylangan: tort= I “chizmoq”: ...agar naqqoshlar takalluf bila tortsalar, oncha torta olmag‘ay erdilar (314); tort=II “bormoq”, “qo‘shilmoq”: ...yigit yalangi va yayoq yalingi bila Qunduzg‘a Xisravshohg‘a tortti (100); tort= III “sovg‘a qilmoq, bermoq”: Bir egarlik ot ham tortti (302) omonimlari hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydi; tort- IV “to‘xtatmoq”: Otini tortti (169). Bu ma’nodagi tort-hozirda ishlatiladi. Qari I “uzunlik o‘lchov birligi hozirda iste’mol qilinmaydi. Shaxsning yosh sifatini bildirgan qari I: ...o‘zbakdek yuz ming qari yog‘ini orqada qo‘yub...(340) qo‘llanadi: Burj, boshliq, naqsh, sobit, tosh, qonun, maqom, tuz, tuman, tund omonimlarining ham bittasi qo‘llanadi.

3. Omonim so‘zlarning har ikkitasi (uchtasi) hozirgi o‘zbek tiliga yetib kelmagan: vofir I “ko‘p, mo‘l”: Oshlig‘i vofir, mevasi farovon (60); vofir II “aruz vaznlaridan biri” .

Savod, pul, sur, ko‘hpoya, tak’ya, taassub, tavr, to‘qa, ud, shar’iy, qonun so‘zlar omonimligi ham hozirda uchramaydi.

“Mahbub ul -qulub”da omonimiyanı yuzaga keltiruvchi hodisa – qadimgi turkiy til so‘zlariga xos turkum sinkretizmi o‘z ifodasini topgan. E.V.Sevortyan tomonidan “fe’l-ot asoslar” (“glagolno-imenniye osnovi”)deb nomlangan bu

hodisa turkiy tillarning boshlang‘ich taraqqiyot bosqichlarida bir bo‘g‘inli leksik asosning ayni bir lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgani holda ism sifatida ham, fe’l sifatida ham ishlatilishini ifoda etadi. E.V.Sevortyan o‘z qarashlarida “fe’l-ot omonimligi” (“glagolno-imennaya omonimiya”), “fe’l-ot omoformalar” (“glagolno-imenniye omoformi”) terminlarini qo‘llagan. Shu bilan bir qatorda, bu hodisani “leksik-morfologik sinkretizm” deb qarash to‘g‘riroq ekanligini e’tirof etgan.

“Mahbub ul -qulub” misollari turkum sinkretizmi aks etgan so‘zlarda kuzatiladigan semantik o‘zgarishlar bir turkum (asosan ot turkumi) doirasida ham sodir bo‘lishini ko‘rsatadi. Bunday so‘zlar hozirgi nuqtai nazardan bir turkumga mansub hisoblansa-da, tarixiy nuqtai nazardan shu so‘zning boshqa turkumga xos jihatlarda namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi. Quyidagi so‘zlarda ot turkumiga xos jihatlar bilan birga sifat turkumi (belgi oti) xususiyatlari mujassamlangan: ichki I “yaqin, ishonarli”: G‘ulda ulug‘ beklardin kishi yo‘q edi, tamom ichki beklar edi (207); ichki II “podshoh saroyiga xos amaldor” (BNL,73): Ichkilardin uch-to‘rti mash’al bila har axshom navbat bilan evrulur edilar (207); Qadimgi turkiy tilda icraci, icrak shaklida qo‘llangan (DTS,202);

Omonimlar tahlili asar matnining mazmun-mohiyatini to‘g‘ri anglashda, tushunchani ta’sirchan ifodalashda, leksemalarning shakliy xususiyatlari va semantik munosabatlari haqida ma’lumot berishda ahamiyatlidir.

“Mahbub ul -qulub” leksikasi semantik jihatdan o‘ziga xos. Asar tilida ko‘p ma’noli so‘zlar, sinonimlar, antonimlar voqelik, narsa-hodisa haqidagi tushuncha, ma’lumotni batafsil yetkazishga xizmat qilgan. Omonimlarning ham uslubiy maqsadlarga xizmat qilishi “Muhokamat ul-lug‘atayn”da yoritilgan.

“Mahbub ul -qulub” leksikasining o‘ziga xosligini ta’minlovchi lingvistik omillardan biri omonimlar, sinonimik paradigma, antonimlarning maqsadga muvofiq qo‘llanishidir. Asar tilining uslubiy o‘ziga xosligini ta’minlashda sinonimik paradigmalar muhim o‘rin tutadi.

Asar tilida voqelik ifodasi davomida turli so‘zlardan, mazmunni batafsil, teran ifodalashda ma’no nozikliklari bilan farqlanuvchi leksik paradigmadan

foydalanilgan. Navoiy idroki teran, mulohazakor, sinchkov inson bo‘lgan. U so‘zlarning ma’no bo‘yoqdorligini chuqur anglagan. Muayyan ma’noni ifodalashda sinonimlardan mohirona foydalangan.

Asar tilidagi sinonimik paradigmalar fikrni teran anglatish, uslubni muvofiq tarzda shakllantirish imkonini yaratgan. Asar tilidagi sinonimik qatorlar miqdor va sifat jihatdan o‘zaro farqlanadi.

Sinonimik paradigmani hosil qiluvchi har bir semema semalari miqdori va ifoda darajasi bilan farqlanadi. Sinonimiya tilning leksik, frazeologik, grammatik sathlarida kuzatiladi. O‘zbek tilining keng ifoda imkoniyatlariga ega ekanligi Mahmud Koshg‘ariy, Alisher Navoiy hamda zamonaviy rus va o‘zbek tilshunoslari tomonidan e’tirof etilgan. Navoiy sinonimlarning mohiyatini, ma’no ifodalashdagi nozik farqlarini, badiiy ahamiyatini ilmiy asosda izohlab bergen.O‘zbek tilining keng ifoda imkoniyatini ta’minlovchi sinonimlar taraqqiyotini diaxronik planda kuzatish, sinonimlarning tushuncha, fikrni yoritishdagi ahamiyatini belgilashda tarixiy, badiiy asarlar tili muhim o‘rin tutadi. Ma’lum davrda yaratilgan yozma yodgorliklar shu davr umumxalq tili leksikasiga oid asosiy jihatlarni aks ettiradi.

XV-XVI asrlar o‘zbek adabiy tili leksikasining ko‘p ma’nolilik, ma’nodoshlik xususiyatlarini ifodalashda “Mahbub ul -qulub” nodir manba hisoblanadi. Asarda o‘zbek tili sinonimiyasining barcha ko‘rinishlari o‘z ifodasini topgan. Navoiy uchun sinonimlardan foydalanish o‘z-o‘zicha qimmatga ega bo‘lgan maqsad emas, balki u avlodlarga yetkazmoqchi bo‘lgan mazmunni to‘la, aniq va go‘zal ifodalash vositasi edi. “Mahbub ul -qulub”da til boyligi bosh maqsadlarni yuzaga chiqarish yo‘lida bir vosita bo‘lib xizmat qilgan”.

“Mahbub ul -qulub”dagi quyidagi sinonimik qatorlar ishtirok etgan: *ayb - quisur - nuqson; anva' - muxtalif - har rang - har jins; muhosara - qabal; ov - shikor; osmon - ko‘k; ot - ism - nom; sovuq - sard; tabib - hakim; tana - badan - jism - vujud; til - zabon - lafz; un - ovoz - tovush; uruq - xesh; farmon - hukm; cherik - qo‘shun - sipoh - lashkar; chin - rost; yayoq - piyoda*.

“Mahbub ul -qulub”da turkiy va o‘zlashgan qatlamga oid so‘zlar o‘zaro sinonimik qatorni hosil qilgan. Turkiy so‘z - turkiy so‘z: asru - ko‘p; yog‘iy - yov;

ushoq - kichik; yoshun - biq; ilik -qo‘l - al; turkiy so‘z - forsiy so‘z: yel - bod; boshliq - sardor; yafroq - barg; yig‘och - daraxt; oshliq - g‘alla - don; tup - tuz - hamvor; ko‘k - osmon; sovuq - sard; turkiy so‘z - arabiyy so‘z: kengash - maslahat - mashvarat; isitma - harorat; ko‘mak - madad (imodod); qabal - muhosara; ona - volida; ko‘pincha - aksar; yarash - sulh; turkiy - mo‘g‘ul: on qol - burang‘ar; sol qol - javong‘ar; turkiy - mo‘g‘ul - arab: on qol - burang‘ar -maymana; sol qol - juvang‘ar - maysara.

Asar tilida faqat o‘zlashma so‘zlar o‘rtasidagi sinonimik paradigmalar ham kuzatildi: forscha - arabcha: nishon - alomat; xizmatkor- mulozim; namoyon - oshkora - zohir; oyin - rasm - odat - dastur; poytaxt - dorul xilofa; mozor - qabr (maqbara); shoh - podshoh - sulton - malik; pushaymon - taassuf - nadomat.

Asar leksikasidagi sinonimik paradigmalar ikki so‘zdan (so‘l - chap); uch so‘zdan (yoruq - charog‘on - ravshan); to‘rt so‘zdan (qo‘shun - cherik – sipoh - lashkar); besh so‘zdan (qiyin - dushvor - shoqq - mutaazzir - mushkul); olti so‘zdan (yog‘iy - dushman - a’do -muxolif - g‘anim - yov); yetti so‘zdan (oxir - avoxir - oyoq - oqibat - poyon - intiho -muntahi - itmom); sakkiz so‘zdan (chuchuk - shirin - laziz - lazzatlik - choshniliq -mazalik - xushmaza - xushta’m); to‘qqiz so‘zdan (emgak - mashaqqat - azob - ranj -suubat - taab - mehnat - zahmat - riyoza); o‘n so‘zdan (yuru= - otlan= - yuzlan= - ilg‘a= - bor= - azimat qil= - tebra= - uza= - ravon bo‘l= - mutavajjih bo‘l=); o‘n bir so‘zdan (ko‘p - qalin - g‘alaba - bisyor - kulliy - farovon - vofir - base - beg‘oyat -behad - asru); o‘n ikki so‘zdan (niyat - maqsad - g‘araz - maqsud - doiya - muddao - murod -dag‘dag‘a - orzu - ishtiyoq - umid - kom) iborat. Bularidan uch-besh so‘zdan tarkib topgan sinonimik paradigmalar ko‘p miqdorni tashkil etadi.

“Mahbub ul -qulub”dagi sinonimlar leksik-semantik jihatdan ikki guruhgaga ajratilgan: 1. Atash va vazifa semalari bir xil, ifoda semalari har xil bo‘lgan so‘zlar. 2. Narsa-buyum, belgi, harakat-holatni turlichay darajalab atovchi so‘zlar (graduonimlar).

Tadqiqotlarda so‘zlarning o‘z ma’nolari bilan sinonimik munosabatda bo‘lishi leksik-semantik sinonim, funksional ma’nolari bilan sinonimik

munosabatga kirishuvi funksional-semantik sinonim termini bilan yuritilgan. H.Shamsiddinov muayyan narsa-hodisalarni, ularning belgisi, miqdori, holati, harakati va o‘zaro munosabatlarini tasviriy usulda, ifoda maqsadiga muvofiq qayta nomlab yoki narsa-hodisaga xoslab ifodalaydigan va alohida so‘zga sinonim bo‘ladigan tilning so‘z va undan katta sath birliklariga nisbatan so‘zlarning funksional-semantik sinonimlari (SFSS) terminini istifoda etadi hamda SFSSning ikki guruhini qayd etadi: I.So‘z shaklidagi SFSS (metafora, metonimiya, sinekdoxa, ellipsis natijasida, juft, takror so‘zlarning vaziyat va kontekstga bog‘liq holda yuzaga keluvchi ma’nolari orqali shakllangan funksional-semantik sinonimlar). II.Sintaktik birliklar: frazeologizmlar, til birligiga aylangan tayyor ekspressema hisoblangan perifrazalar.

“Mahbub ul -qulub”dagi sinonimlar qatori ikkiga ajratildi: 1.Leksik-semantik sinonimlar. 2.Funksional-semantik sinonimlar..

Leksik-semantik sinonimlar an’anaviy tarzda qo‘llanib kelayotgan ma’nodosh so‘zlardir. Leksik-semantik sinonimiyaga asoslangan paradigmani tashkil qiluvchi ayrim so‘zlar arxaiklashadi. Davr o‘tishi mobaynida sinonimik parigma yangi so‘zlar bilan boyib boradi. Leksik-semantik sinonimlar muayyan tushunchani ifodalovchi so‘zlar paradigmasidir. Bunday paradigmani hosil qiluvchi so‘zlar matndan mustaqil holda o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘ladi. Leksik-semantik sinonimlar parigmasi so‘zlarning genetik asosiga ko‘ra quyidagicha guruhlandi:

1. Leksik-semantik sinonimiya turkiy so‘zlar o‘rtasida sodir bo‘lgan: tuysezir: Muhammad Mazid tarxon tuyub shahrdin chiqtı (133). Tuymoq so‘ziga sinonim sifatida sezirmoq so‘zi qo‘llangan: Bu muhimni Tanbalga sezirgach, tura olmadilar, xon qoshig‘a qochib keldilar (155). Sezirmoq boshqa manbalarda uchramaydi.

2. Leksik-semantik sinonimiya turkiy – forscha-tojikcha - arabcha so‘zlar o‘rtasida kuzatiladi: tutqun – asir - bandi; et - go‘sht - lahm: Hazoraning bir semiz lo‘k tevasini topib kelturdilar, ani o‘lturub, go‘shtidin bir parcha kabob qilduk, ... oncha laziz teva eti hargiz yejilgan emas edi, ba’zi qo‘y etidin farq qila olmaydilar

(219). Bobur mazkur sinonimik paradigmadan matn uslubini maqsadga muvofiq shakllantirishda foydalangan. Asarda asosan go'sht, et so'zları qo'llangan. Lahm arabcha birikma va jumlalar tarkibida uchraydi: Yana lo'chadur... Ma'kulul-lahmdur, bisyor laziz eti bordur (349). Ma'kulullahm "go'shti yeylimadigan, halol" ma'nosidagi birikmadir. Yet qadimgi turkiy tilda qo'llangan (ESTY,311). Eski o'zbek adabiy tilida ham faol ishlatilgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida, deyarli, mustaqil qo'llanmaydi.

Yog'i-dushman-g'anim-yot so'zları "raqib tomon", "qarama-qarshi subyekt" tushunchalari asosida paradioga hosil qiladi. Bu so'zlardan yog'i, dushman asosan "raqiblar guruhi"ni anglatgan: Yog'i qocha berdi, qo'rg'ondag'ilarni ko'z tuttuk, ish vaqtida yetisha olmadilar, yog'ini tebratgandin so'ng birin-ikkin chopishib kela bashladilar (261). O'zaro raqobat, ziddiyat g'anim so'zida kuchliroq ifodalangan: g'anim qo'rg'onda emas edi (141). G'anim so'zi semalari farqli xususiyatlarda namoyon bo'lган: a) yakka shaxs tushunchasini bildirgan: Ikkinci bukim, mening g'animim Shayboqxondek purtajriba va ko'p ish ko'rgan va ulug' yoshliq kishi edi (141); b) raqiblar guruhini anglatgan: g'anim kishisi Xoban kentidin yasab chiqtı (127). Yot "begona", "notanish" (ANATIL,I,543) ma'nosidagi so'z, bevosita "raqib" tushunchasini ifodalash bilan birga, ta'kid, kuchaytirish uchun xizmat qilgan: Qandag'i yot yog'iy o'zbak kelib mutasarrif bo'lib edi (141/80,II). Yot so'zida so'zlashuv uslubi xususiyati mavjud: o'z kishini yotdin farq qilg'ay (162). Muxolif-a. "teskari, qarama-qarshi" (NAL,432)... o'shul manba Ali Do'st tag'oyi Andijon qal'asini muxoliflarga beribtur (112). Yov so'zi badiiy uslubga xos: ... va ko'p yovning tanasi mazallat tuprog'ig'a tushub, fano bodig'a yiborildi (454).

3.Leksik-semantik sinonimiya arabcha so'zlar o'rtasida kuzatiladi: avlod-nasl: ... balki bu taaddi va tashaddud Xojaning avlodig'a dag'i siroyat qildi (79); Yana bir Boboql Bobo Alibek edi. Shayx Ali Bahodurning naslidin edi (71).

4. Leksik-semantik sinonimiya forscha-tojikcha - arabcha so'zlar o'rtasida kuzatiladi: asal-shahd: Kobul atrofidagi Ko'histondagi asal bisyor kelur. Shahdxonalari bordur (187). Shahdxona "shahd" (asal) olinadigan joy".

Xat - nishon - arzadosht - kitobat - sarxat paradigmasi rasmiy yozma ma'lumotlarning turli jihatlarini yoritishga xizmat qilgan. Xat arabcha "chiziq", "iz" ma'nosidagi so'z bo'lib (NAL,651), "yozuv" semasi keyin shakllangan. Shu sema asosida "shaxsning fikr-mulohazalari, istagi, orzu-intilishlari, tilaklari bitilgan matn" tushunchasi yuzaga kelgan. "Mahbub ul -qulub"da "shaxsning fikr-o'y, da'vat, talab, xohishni muayyan obyektga yetkazish" tushunchasini ifodalagan: bu nav' xatlar kelib, mundoq ehtimol bila tilag'aylar (112)... o'z ilgim bila xatlar bitib yibordim (422). Xat "yozuv", "imlo" ma'nosida ham qo'llangan: ...xat va tasvir va o'q va paykon va zihgir har nimaga iligi chaspondur (68). Bobur tuzgan alifboning "Boburiy xati" tarzida nomlanishi ham xatning "yozuv", "imlo" ma'nosida qo'llanganini ko'rsatadi. XV-XVI asrlarda qo'llangan xat chiqar=, xatti amon (xatti amoni), xat bor xat, xatti iste'molat, xatti najot, xatti ozodlik, xatti g'ubor birikmalarida xat so'zining "hukm", "dalolatnama", "izchil", "tizimli", "da'vatnama", "tasdiqnama", "ma'lu-motnama", "chiroyli yozuv" semalari namoyon bo'lgan (NAL,651). Eski turkiy tilda xat "husnixat"; "xat", "hujjat" ma'nolarida qo'llangan (DTS,636).

Sarxat so'zida xatning "namuna" semasi ifodalangan. Sarxat "yangi husnixat mashq qiluvchi uchun ko'rsatma sifatida muallim tomonidan yozib beriladigan xat namunasi" (NAL, 552; TRS, 345): Mirzobek tag'oyidin ham Kamrong'a tarjima va Hindqa kelgali aytqon ash'or va "Boburiy xati" bila bitilgan sarxatlar yiborildi (429).

Sarxat namunaviy shakldagi husnixat bo'lib, ma'rifiy maqsadga xizmat qilgan. Sarxat milliy kalligrafiya taraqqiyoti haqida muayyan tasavvur beradi. Arzadosht arabcha "o'z ahvolini bayon qilish, istak, maqsadni xat orqali bildirish" (ANATIL, I,110)dir. Arzadosht Navoiy ijodida "ariza tutish", "arz qilish" ma'nolarida ham qo'llangan (NAL,56). Arzadosht - istak maqsad, arzi hol bitilgan maktub: Manga arzadoshti kelib edi...(68). Kitobat arabcha "yozish, ko'chirib yozihs"; "xat yozihs"; "yozuv" (NAL,314); "xat" (TRS,188) ma'nosidagi so'z. "Mahbub ul qulub"da "maktub" tushunchasini anglatib, yuqoridagi so'zlar bilan parigma hosil qilgan: Ikkinchchi navbat Samarqandni olg'animda Alisherbek tirik

edi, menga kitobati ham kelib edi (142). Kitobat ifodalanayotgan obyektning hajmiga ko‘ra xatdan farqlanadi. Xat va kitobat so‘zlarining ketma-ket qo‘llanishi ularning ayni bir tushunchani ifodalamasligini ko‘rsatadi: xat va kitobatlar tayyor bo‘lub, Bayonshayxqa topshurub, ruxsat berildi (420). Xat va arzadosht so‘zlarining ketma-ket qo‘llangani ham mazkur birliklar ifoda semasida ma’lum farq borligini ko‘rsatadi: Xatlardin va arzadoshtlardin ul yuzdagi, bu yuzdagi kayfiyat va holat mushaxxas va ma’lum bo‘ldi (420). Nishon forscha-tojikcha “belgi”, “alomat” (NAL,463) ma’nosidagi so‘z bo‘lib, “xat, maktub” semalari keyin shakllangan: Ushbu fursatlar Sulton Husayn mirzodin... bir mazmun bila uzundan-uzoq nishonlar keldi, ul nishonlar bu tarixqacha mendadur (179). Nishon so‘zining semantik ko‘lamida quyidagi semalar mavjud: 1) “belgi, alomat”; 2) “darak, xabar”; 3) “ramz”; 4) “namuna”. Mazkur so‘zning “xat”, “maktub” ma’nolarida qo‘llanishida “xabar” semasi ustun hisoblanadi. Nishon eski turkiy tilda quyidagi ma’nolarda qo‘llangan: nisan p..1) ”belgi”, ”alomat”, ”iz”; ”ishora”, ”tamg‘a”; 2) ”muhr”, ”hujjatdagi shaxsiy belgi muhri” (DTS,359); ”maktub” ma’nosi kuzatilmaydi. ”Maktub” ma’nosi, keyinchalik, metonimiya asosida yuzaga kelgan.

Antonimlar. A.Navoiy voqelikni ifodalashda zid ma’noli so‘zlardan o‘rinli foydalangan. Zidlik asosida voqeа-hodisaning mohiyatini ta’sirchan yoritishga erishgan. Asar tilidagi antonimlar quyidagicha ajratildi:

1.Leksik-semantik antonimlar. 2. Funksional-semantik antonimlar.

Leksik-semantik antonimlar uch xil shaklda qo‘llangan: 1) alohida qo‘llangan antonimlar. Bu antonimlar sodda va murakkab ko‘rinishlarga ega. Sodda antonimlarning o‘zi ham tub va yasama shakllarda uchraydi. Sodda tub antonimlar voqeа-hodisaning mohiyatini, ahamiyatini ta’kidlashga xizmat qilgan: ishrat-usrat; farog‘at-mashaqqat: ishrat usrattin so‘ng, farog‘at mashaqqattin keyin lazzatliroq va yaxshiroq ko‘runur (152). Sodda ko‘rinishdagi antonimlar asar suujetidagi zid mohiyatni yoritishga xizmat qilgan; Bobur u yoki bu hodisani o‘zaro taqqoslash jarayonida antonimlardan foydalangan: Dushman bisyor qaviy, biz ko‘p za’if...(276).

Sodda yasama antonimlar ot+li; ot+siz qolipi asosida shakllangan: *kepanakli-kepanaksiz*: Ul kun ham g‘ariyb yomg‘ur edi. Kepanakli- kepanaksiz barobar edi (295); sifat+liq qolipi asosida: qavyqliq-zaifliq: O‘zga bu qavyqliq bila alar arkta va bu za’ifliq bila biz tosh qo‘rg‘onda...(168).

Qavy – “kuchli, quvvatli” (NAL,726), zaif – “kuchsiz, ojiz” demakdir.

Birikmalarning zid ma’noda qo‘llanishi murakkab ko‘rinishdagi antonimlarni yuzaga keltirgan. M., tong otquncha - oftob botquncha: ...ul kecha tong otquncha va ul kuni oftob botquncha va yana kechasi tongdin burunroq Marg‘inonning bir yig‘ochiga yetganda...(119);

2) juft shaklda qo‘llangan antonimlar. Juft shaklda qo‘llangan leksik- semantik antonimlar, asosan, umumiylor grammatik ma’no ifodalashga xizmat qilgan: ... ulug‘-kichik mujassam butlar tarosh qilibturlar (414). Bu o‘rinda uluq- kichik a) “butlarning hajmi”ni; b) “xilma-xilligi”ni; v) ”ko‘pligi”ni ifodalagan. Quyidagi jumlada ulug‘-kichik “hamma”, “barcha” ma’nosida kelgan:...ulug‘- kichikka ont berurda...(397). Ba’zi o‘rinlarda “odamlar” tushunchasi ifodalangan: Yana bir necha ulug‘-kichik gird va go‘shamda bo‘lurlar edi (159). Yaxshi-yomon: “jami” tushunchasini ifodalagan: Bizning kishimiz yaxshi va yomon ikki yuz qirq kishi edi (139). Yaxshi-yomon ulug‘-kichik antonimik juftligi bilan birgalikda “jami” tushunchasini ifodalagan: Xisravshohning yaxshi-yomon, ulug‘-kichik navkari to‘rt-besh ming bo‘lg‘ay edi (93). Eski o‘zbek adabiy tilida yaxshi - “zodagon”, yomon “oddiy jangchi” ma’nosini ham anglatgan. Do‘st- dushman...Yarashlar urushqa, do‘stluqlar dushmanliqqa mubaddal bo‘lur edi (65); O‘luk-tirik “hamma”: ...mashvarat qilib o‘luk-tirikni Samarqand qo‘rg‘onining ichida ko‘rub, qo‘rg‘onni berkitmak bo‘lduk (146). Otliq-yayoq antonimik juftligi ham “barcha, hamma” tushunchalarini ifodalagan: otliq-yayoqni yig‘ib...(265). Kecha -kunduz: Ul kecha-kunduz tinmay,...(119); iroq-yovuq: ... iroqda-yovuqta eshitur (89);

3) uyushib kelgan antonimlar: a) sanash ohangi yordamida uyushgan antonimlar: ...ichkari, tashqari tushgan yigitlarni olishib yondilar (94); b) teng bog‘lovchilar vositasida uyushgan antonimlar: chin va yolg‘on: Ul jam’

o‘zlarining xaloslig‘i uchun bir necha chin va yolg‘on so‘zlar aytib xong‘a yo oradag‘ilarg‘a pora va rishva qabul qildilar (113);

Asardagi antonimlarning ba’zilari kontekstual xarakter kasb etgan. Kontekstual yoki funksional-semantik antonimlar so‘zning ma’no imkoniyatlarini yoritgan; muallifning lingvistik mahoratini aks ettirgan; fikr, hodisa mohiyatini ta’sirchan ifoda etgan.

A.Navoiy antonimlarni ketma-ket qo‘llab, ma’noni ta’sirchan aks ettirishga erishgan: M., usrat-arzonliq; baliyat-omonliq. Andoq usrattin mundoq arzonliq va andoq baliyattin mundoq omonliqqa kelduk (151).

Shiddat-rohat; mashaqqat-farog‘at: ...to‘rt-besh ushmundoq shiddattin rohatqa va mashaqqattin farog‘atqa muntaqil bo‘lubtur (152).

Navkar - podshoh: navkar 1)”xodim, xizmatchi”; 2) “askar yigit” (NAL,445) ma’nolaridagi so‘z. Asarda “tobe”, “xizmatchi”, “qul” tushunchalarida podsho so‘ziga zid qo‘llangan: ...bularg‘a navkarlik qilg‘anim Tanbalg‘a podshohliq qilg‘andin ortiqroqdur (165). Urush-sulh, qul-sulton, begim-g‘unchachi, hokim-riayat, arbob-fuqaro, adl - zulm, sipohiy - dodak kabi so‘zlar munosabatida ham zidlik kuzatiladi.

Ko‘rinadiki, “Mahbub ul qulub” leksikasi semantik xususiyatlariga ko‘ra bir necha nomdagi makromaydonga birlashadi. Leksemalar birlashtiruvchi, farqlovchi semalariga ko‘ra muayyan guruhlarga mansubdir. Asar leksikasida shaxs va shaxs faoliyati; ijtimoiy-siyosiy, makon tushunchasini ifodalovchi semantik maydon leksemalari nisbatan ko‘p miqdor ni tashkil etdi.

## XULOSA

1. “Mahbub ul qulub”” leksikasi turli-tuman semantik maydongan mansub so‘zlar tizimidan iborat. Asar leksikasining asosiy qismini shaxs va shaxs faoliyati bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi, maishiy tushunchalar bilan bog‘liq, ijtimoiy-siyosiy tushuncha bildiruvchi semantik maydon so‘zlari tashkil qiladi.

2. “Mahbub ul qulub” leksikasini semantik maydon tasnifi asosida o‘rganish asar leksikasida qo‘llangan so‘zlarning o‘zaro nisbatini belgilashda, asar voqeligini yorituvchi asosiy leksik birliklarni ajratishda, leksik birliklar o‘rtasidagi mazmuniy aloqadorlikni yoritishda, leksik birliklarning semantik mundarijasini, semalar tarkibini tahlil qilishda, leksik birliklar semantik tarkibidagi o‘zgarishlarni kuzatishda ahamiyatlidir. Ijtimoiy hayotning barcha sohalariga oid tushunchalarni ifodalovchi leksemalarning qo‘llanishi asar leksikasining qomusiyligini ta’minlagan.

3. Semantik maydonga ajratib izohlashda so‘zlarning ma’no mundarijasini namoyon bo‘ladi. Muayyan so‘zda bir necha semantik maydon xususiyatlari mujassamlangan.

4. “Mahbub ul qulub” leksikasining o‘ziga xosligi unda turkiy, arabcha, forscha-tojikcha o‘zlashmalarning semantik, funksional-stistik xususiyatlari aks etgani, muallifning so‘zlarni qiyoslash, so‘z etimologiyasi, imlosi, tahliliga doir mulohazalari ifodalangani, eski o‘zbek tiliga oid bir qator manbalarda kuzatilmaydigan arxaik birliklar va muallif mahorati bilan belgilanuvchi okkazionalizmlar qo‘llangani bilan belgilanadi.

5. “Mahbub ul qulub”” leksikasi tarixiy-etimologik jihatdan o‘z qatlam va o‘zlashgan qatlamdan iborat. Turkiy so‘zlar XV–XVI asrlar eski o‘zbek adabiy tili lug‘at boyligining asosini tashkil etgan.

6. Asar leksikasining o‘z qatlamini XV-XVI asrlar eski o‘zbek adabiy tili leksikasida faol qo‘llangan so‘zlar tashkil etadi. Asardagi turkiy so‘zlar hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanish darajasi va semantik xususiyatlariga ko‘ra

farqlanadi. Turkiy leksik birliklarning asosiy qismi hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadi.

7. “Mahbub ul qulub” da eski o‘zbek tili davriga xos o‘zlashmalar faol qo‘llangan. Forscha-tojikcha, arabcha so‘zlarni hozirgi o‘zbek adabiy tiliga qiyoslash natijasida leksik birliklar semantikasida o‘zgarishlar yuz bergani kuzatildi. Asar leksikasidagi o‘zlashmalar hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanadigan, hozirgi o‘zbek adabiy tilida qo‘llanmaydigan so‘zlardan iborat.

8. “Mahbub ul qulub” leksikasi semantik xususiyatlariga ko‘ra bir necha nomdagi makromaydonga birlashadi. Leksemalar birlashtiruvchi, farqlovchi semalariga ko‘ra muayyan guruhlarga mansubdir. Asar leksikasida shaxs va shaxs faoliyati; ijtimoiy-siyosiy, makon tushunchasini ifodalovchi semantik maydon leksemalari nisbatan ko‘p miqdor ni tashkil etdi.

9. “Mahbub ul qulub” leksikasi shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra shakliy bir xil, ammo turli ma’no ifodalovchi (omonim), bir tushunchani turli uslubda, ma’noviy bo‘yoqda, darajalab aks ettiruvchi (sinonim), ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qiluvchi (antonim) leksik birliklardan iborat. Asar matnida eski o‘zbek tilidagi omonim, sinonim, antonimlar bilan bir qatorda, muallif uslubiga xos omonimik, sinonimik, antonimik paradigmalar qo‘llangan.

## **Bitiruv malakaviy ishida qo'llangan shartli qisqartmalar:**

**ANATIL** – Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. I–IV jild. - Toshkent, 1983–1985.- I–656; II–644; III–624; IV–636;

**ATTUHFA** – Attuhfatuz-zakiyat-fil-lug‘atit turkiya.-Toshkent: Fan, 1968. - 280 b.

**BAL** – Nazarova X. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarining izohli lug‘ati.- Toshkent, 1972. -187 b.

**BNL** – Ishoqov F. “Boburnoma” uchun qisqacha izohli lug‘at. -Andijon nashriyot-matbaa OAJ,, 2008.-236 b.

**DTS** – Drevnetyurkskiy slovar.-L.,1969.

**DLT** – Devonu lug‘otit turk. I– III.-Toshkent, 1960–1963. I–500 b.; II–428 b.; III–463 b.

**NAL** – Navoiy asarlari lug‘ati. Porso Shamsiyev tahriri ostida.-Toshkent, 1972. -784 b.

**TTIL** – Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. -Toshkent, 2002. -167 b.

**O‘TEL** – Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (turkiy so‘zlar). -Toshkent, 2000. -600 b.

**O‘TIL** – O‘zbek tilining izohli lug‘ati.-M.:Rus tili, 1981. I–632; II–715;

**O‘TILK** – O‘zbek tilining izohli lug‘ati. -Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2006. I –680 b.; II– 672 b.; III – 688 b.; IV - Toshkent, 2008. -608 b.; V – 592 b.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. Mirziyoyev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent – “O‘zbekiston”, 2016.
3. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. O‘zbekiston ijodkor ziyorilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma’ruzasi // Xalq so‘zi. – 2017-yil, 4-avgust.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 174 b.
5. Karimov I.A. 2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi. Xalq so‘zi gazetasi 2012-yil 20-yanvar.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston mustfqillik arafasida. Toshkent, 2011. – Б. 400–403.

### **II. Asosiy adabiyotlar:**

1. Abdulxayrov M. Navoiy asarlarida so‘z va iboralar.-Toshkent: Tafakkur bo‘stoni,2009.-240 b.
2. Abdurahmonov G‘. Shukurov Sh. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. Toshkent: "O‘qituvchi", 2008.
3. Abdurahmonov G‘. Tarixiy sintaksis//O‘zbek tili tarixiy grammatikasi kursi bo‘yicha materiallar. Toshkent, 1974.

4. Abdurahmonov G‘. Rustamov A. Alisher Navoiy tilining grammatik xususiyatlari. Toshkent , 1984.
5. Alisher Navoiy. Tanlangan asarlar. 20 tomlik. XIV tom. Toshkent, 2006.
6. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. Asarlar. O‘n besh tomlik. 14-tom. -Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1966. T.14. 269 b.
7. Alisher Navoiy. “Mahbub ul-qulub”. Mukammal asarlar to‘plami. O‘n to‘rtinchi tom. — Toshkent, 1998
8. Alisher Navoiy. Farhod va Shirin//O‘zbek adabiyoti bo‘stoni. Toshkent, 1989.
9. Bafoyev B. Alisher Navoiy asarlari leksikasi. Toshkent, 1983.
- 10.Bafoyev B.Navoiy tilida hindcha so‘zlar//O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 1991.-№4.-B.38-44.
11. Devonu lug‘otit turk. Inleks-lug‘at (G‘.Abdurahmonov va S.Mutallibovlar ishtiroki va tahriri ostida) Toshkent, 1967.
12. Jumaniyozov. R. ."Qalam" so‘zining yozma adabiyotda qo‘llanilishi// O‘zbek tili va adabiyoti masalalari. 1988.
- 13.Iskandarova Sh. Mazmuniy maydonning mantiqiy tuzilishi // O‘zbek tili va adabiyoti.-Toshkent, 1997.-№2.-B.66-69.
- 14.Iskandarova Sh. Onomasiologiya muammolari va o‘zbek tili leksikasini maydon sifatida o‘rganish //O‘zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, 1998. -№3.- B.28-31.
- 15.Muhammad Solih. Majolisun-nafois (Nashrga tayyorlovchi E.Shodiyev). // O‘zbek adabiyoti bo‘stoni. Toshkent, 1990. –B. 336.
- 16.Rustamov A. Alisher Navoiy tilining fonetik va morfologik xususiyatlari. Filol. fan. d-ri.... diss-ya. Toshkent:1966.-515 b.
- 17.Rustamov A. Alisher Navoiy tilining fonetik xususiyatlari. Navoiy va adabiy ta’sir masalalari. Toshkent: Fan.1968. -B.258-278.
- 18.Rustamov A. Navoiyning badiiy mahorati. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti.1979.-213 b.

- 19.Rustamov A. So‘z xususida so‘z.-Toshkent: Yosh gvardiya.- 1987.-158 b.
- 20.Rustamova S. Mahmud Koshg‘ariy lug‘atining leksikografik xususiyatlari. Filol. fan. nom. ...diss-ya. -Toshkent: 1998. -24 b.
- 21.Sobirov A. O‘zbek tilining leksik sathini sistema sifatida tadqiq etish.-Filol. Fan. nom. ...Diss. avtoref.-Toshkent, 2005.50 b.
22. Sodiqov Q.. XI-XV asr uyg‘ur yozuvli turkiy yodgorliklarning grafik-fonetik xususiyatlari. Filol. fan. d-ri...diss-ya.-Toshkent, 1992.
- 23.Tojimatov X. Sifat sememasining reallashuvida kontekst.-Filol. fan. nom.... Diss. avtoref.-Toshkent, 2007.-27 b.
24. Devonu lug‘otit turk. 3 tomlik Toshkent, 1960-1963.
- 25.Umarov 3. XV asr tilida unlilar//O‘zbek tili va adabiyoti, 1982. № 6, -B.45-46.
26. Hasanov F. «Kelurnoma». Toshkent, 1978.
27. Hafizova A. ."Kelurnoma" leksikasiga doir//O‘zbek tili va adabiyoti, 1988 № 5 - B. 68-71.
28. Alisher Navoiy asarlarining izohli lug‘ati. E.I.Fozilov tahriri ostida. I tom Toshkent. 1983 -656 s; II tom. Toshkent, 1983. -642 s; III tom. Toshkent, 1984. -622 s; IV tom. 1985. -634 s.
- 29.Olimov M. “Boburnoma”da qo‘llangan sinonimlar lug‘ati.-Toshkent: Fan, 2004.-110 b.
- 30.Omonturdiyev A. O‘zbek tilining qisqacha evfemik lug‘ati.-Toshkent: Fan, 2006.-136 b.
31. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining etimologik lug‘ati (arab so‘zlari va ular bilan hosilalar). Toshkent: Universitet, 2003. -599 b.
- 32.Tarjumon – XIV asr yozma obidasi.-Toshkent: Fan,1980.-B.59-60. 127 b.
- 33.O‘zbek xalq shevalari lug‘ati.-Toshkent: Fan, 1971. – 407 b.

## **Elektron manbalar**

- 1.<http://www.wortschatz.uni-leipzig.de/>
- 2.<http://www.sfb441.uni-tuebingen.de/~wunsch/nv/release/>
- 3.<http://www.philology.ru/linguistics1/>
- 4.[Norbert Fries, Online Lexikon Linguistik. Berlin 2006](#)
- 5.<http://fries.anaman.de>
- 6.<http://lexikon.anaman.de/lexikon.htm>
- 7.<http://www.gldv.org/cms/gldv.php>